Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda
На посту

2023-yil
17-avgust
payshanba

№ 33 (4623)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

Yoshlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkori

«YOQIMLI HAYAJON TUYDIM»



IIV Akademiyasining iqtidorli kursantlaridan biri Sabina Kamolova Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo mamlakatlar miqyosida «Scientific Academy» ilm-ma’rifat markazi tomonidan yoshlarning ilm-fan sohasidagi yutuqlarini qo‘llab-quvvatlash, salohiyatini ro‘yobga chiqarish, tashabbus va g‘oyalarini rag‘batlantirish maqsadida har yili o‘tkaziladigan «Ta’lim iftixori» xalqaro tanlovi g‘olibi bo‘ldi.


3



Namangan shahar bo‘yicha IIOFMB Davlatobod tumani IIB 154 ming aholiga xizmat ko‘rsatadi. Bo‘limda shaxsiy tarkib samarali faoliyat olib borishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Navbatchilik qismiga kelib tushayotgan murojaatlar o‘z muddatida qabul qilinib, ularning ijrosi bo‘yicha amaliy ishlar qilinayotir.

Bo‘limdagi har bir xonaga videokameralar o‘rnatilgan. Bu esa turli qonunbuzilish holatlarining oldini olib, xizmat samaradorligi ortishida ham muhim omil bo‘lmoqda.

– Turli sport tadbirlari, o‘quv seminarlari tashkil etilishi xodimlarni sog‘lomlashtirishga, ularning bilim saviyasini oshirishga xizmat qilmoqda, – deydi tuman IIB boshlig‘ining o‘rinbosari, mayor Ikrombek Tojiboyev.



Учинчи секторда

АРНАСОЙ ТУМАНИ: МУАММОЛАРГА ЕЧИМ БЎЛГАН МУЛОҚОТ

Жиззах вилояти ИИБ бошлиғи, генерал-майор Ғайрат Қодировнинг навбатдаги сайёр қабули Арнасой туманининг Ғафур Ғулом номли маҳалласида бўлиб ўтди.





«Ғолиблар», Мирзо Бобур ва Ғафур Ғулом номидаги маҳаллалар аҳли иштирокида ўтган тадбир аввалида ижтимоий дафтарлар рўйхатига олинган 5 нафар аёлга субсидия асосида тикув машинаси, 4 нафар йигитга сафарбарлик чақируви резерви тўловлари ва яна 3 кишига моддий ёрдам ажратилишини тасдиқловчи сертификатлар топширилди. Бундан ташқари, Президентимиз томонидан илгари сурилган беш муҳим ташаббус доирасида беш нафар ёш рағбатлантирилди.

Аҳоли ўртасидаги муаммоларни ҳал этиш бўйича ҳокимлик, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва тумандаги бир қатор ташкилотлар масъуллари ҳамда маҳаллалар бешликларига топшириқлар берилиб, ижро муддатлари белгиланди. Тадбир давомида вилоят ИИБ бошлиғи йиғилганларга мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар, хусусан, вилоятда саноат корхоналари фаолиятини йўлга қўйиш ҳамда электр энергияси ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш мақсадида Фориш, Ғаллаорол ва Шароф Рашидов туманларида амалга оширилаётган йирик лойиҳалар, шунингдек, жиноятчиликка қарши курашишга қаратилган кенг кўламли саъй-ҳаракатлар ҳақида атрофлича маълумот берди.


Шу куни вилоят ИИБ бошлиғи криминоген вазиятга кўра, «қизил» тоифага киритилган «Олтин водий» маҳалласида ҳам бўлди. Бу ерда бешлик билан мулоқот ўтказилиб, содир этилган жиноятларнинг сабаб ва омиллари таҳлил қилинди. Мазкур жараёнда «Обод ва хавфсиз маҳалла» тамойили асосида уйма-уй юриш орқали ижтимоий-иқтисодий муаммоларни аниқлаш ва бартараф этиш чораларини кўриш, хусусан, аҳоли бандлигини таъминлаш, ҳуқуқий ва психологик ёрдам кўрсатиш масалаларига эътибор қаратилди.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
ўз мухбиримиз.
Жиззах вилояти.

Мустақиллик тенгдошлари

БУНДАН ФАХРЛАНМАЙ БЎЛАДИМИ?!

Ҳар йил шонли сана яқинлашаверса, қалбимга чексиз фахр-ифтихор туйғуси инади. Мустақил юрт фарзанди эканлигингдан, истиқлол билан тенгдошлигингдан фахрланмай, ғурурланмай бўладими, ахир?!



Маҳаллада ён қўшнимиз Ҳусейнжон ака Файзиев ички ишлар органларида хизмат қиларди. Уни ҳар сафар кўрганимда, ўзига ярашган кийими эътиборимни тортарди. Ҳеч бўлмаганда, бир бор бош кийимини кийиб кўриш истаги кун сайин тинчлик бермасди. Ҳар гал унга суқланиб қарашимдан истагимни билди, шекилли, бир куни ёнига чорлади. Аввал бош кийимини кийдириб, сўнгра маслаҳатга ўтди. «Спорт билан шуғулла, яхши ўқигин. Муродингга етасан», деган ўгитлари ҳали ҳамон қулоғим остида жаранглайди.

Бухоро давлат университети ҳузуридаги Академик лицейда таълим олгач, ҳарбий хизматни ўтаб, шу йили ИИВ Академияси курсанти бўлиш шарафига муяссар бўлдим.

Менинг орзуим амалга ошди. 2017 йилда Бухоро тумани ИИБ эксперт-криминалистика гуруҳи катта эксперти лавозимида, кейинчалик вилоят ИИБ Ташкилий бошқарма юридик таъминлаш бўлими етакчи юрисконсульти ва бироз муддат ўтгач, катта юрисконсульти вазифаларида хизмат қилдим. Айни пайтда вилоят ИИБ маънавий-маърифий ишлар ва кадрлар билан таъминлаш хизмати бошлиғининг мукофотлаш масалалари бўйича ёрдамчиси лавозимида фаолият кўрсатмоқдаман.

Халқимизда «омад интилганга кулиб боқади», деган гап бор. Ҳалол меҳнат қилиб, олға интилган киши ҳеч қачон хор бўлмайди, ўз мақсадига албатта эришади.

Аслида азиз диёримизнинг ўттиз икки йил давомида босиб ўтган ҳар бир қадамида асрларга тенг ишлар амалга оширилганлигини ўйлаган инсоннинг қалбида фахр ва ғурур туйғулари барқ уриши муқаррар. Юртимнинг ҳар бир гўшасида юксалиш, ривожланиш ва ҳар бир соҳада бўлаётган ўзгаришларни кўриб, унинг келажагига бўлган ишонч яна бир карра ортади. Ўсиб келаётган ёшларга яратилаётган шарт-шароитларни кўрганингда ва уларнинг аниқ мақсад ила ҳаракат қилишларига қараб, Ватан тақдири ишончли қўлларда эканлигига амин бўласан, киши.

Ниятим, мустақил мамлакатимиз тараққиёти йўлида хизмат қилаётган ҳар бир инсонни фидойилик, юртга бўлган муҳаббат ва касбга садоқат туйғулари ҳеч қачон тарк этмасин.

Баҳодир ҚАҲҲОРОВ,
капитан.
Бухоро вилояти.

Yoshlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkori

«YOQIMLI HAYAJON TUYDIM»

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

– Sabina Kamolova har doim o‘z ustida ishlaydigan tirishqoq kursantlarimizdan, – deydi IIV Akademiyasi jinoyat huquqi kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori Mavjuda Rajabova. – U bo‘lajak tergovchi. Shu bois o‘ziga nisbatan talabchanligini qadrlayman. Chunki bu soha odami zukko, ziyrak va har tomonlama bilimdon bo‘lishi kerak. Xalqaro tanlovda ishtirok etish istagi borligini aytganida, bajonidil qo‘llab-quvvatladim, ammo bu ish oson emasligini ham ta’kidladim. «Ozodlikdan mahrum qilish jazosining o‘ziga xos xususiyatlari» mavzusidagi ilmiy ishi har jihatdan mukammal bo‘lishi uchun birgalikda ishladik, zarur bo‘lganida kerakli tavsiyalarimni berdim. Uning munosib ishtiroki, muvaffaqiyatidan ta’lim dargohimiz jamoasi quvondi.

Ma’lumot o‘rnida ta’kidlash joizki, bu yilgi tanlovda 4 ming nafardan ortiq yoshlar qatnashdi. Kengashga taqdim qilingan ilmiy ishlar ikki bosqichda ko‘rib chiqilib, yakunida 427 nafar ishtirokchining ilmiy ishi saralab olindi. Samarqand shahrida o‘tkazilgan «Zamonaviy uzluksiz ta’lim sifatini oshirish: intellektual ta’lim-tarbiya, innovatsiya va istiqbollar» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasida esa tanlov g‘oliblari e’lon qilindi.

– Maqolamda jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan tadbirlarni o‘z vaqtida belgilanishining o‘ziga xos jihatlarini asoslab berishga harakat qildim, – deydi Sabina Kamolova. – Ochig‘i, g‘olib bo‘lishimni kutmagandim. Chunki tanlov ishtirokchilarining qamrovi ancha keng bo‘lib, ular talabalar, magistrlar, doktorantlar va o‘qituvchilardan iborat edi. «IIV Akademiyasi kursanti Sabina Kamolova» deya e’lon qilishganida qalbimda yoqimli hayajon tuydim, nihoyatda xursand bo‘ldim. Bizning bu yutuqlarimiz tinch, osoyishta va farovon yurtda yashab, o‘qib, bilim olayotganimiz sharofatidan ekanligini yana bir bor his etdim.

Xalqimizda «Zar qadrini zargar biladi» degan maqol bor. Sabina kabi ilm-ma’rifatning nurli manzillari sari ezgu niyatlar bilan odimlayotgan bilimga chanqoq yoshlar «Ta’lim iftixori» esdalik ko‘krak nishoniga loyiq topilishi bejiz emas, albatta. Bular kun kelib, «ilm-ma’rifat zargari»ga aylanib, jamiyat rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shishiga ishonchdir.

Gulnoza TURG‘UNBOYEVA,
o‘z muxbirimiz.

Mustaqillik mening taqdirimda

ASRIY ORZUYIMIZ USHALGAN KUN



Sanoqli kunlardan keyin mamlakatimizda eng ulug‘, eng aziz bayramimiz – yurtimiz mustaqillikka erishganining 32 yilligi keng nishonlanadi. Istiqlolga erishish xalqimizning asriy orzusi edi. Ko‘hna tarix uchun 32 yil bir kiprik qoqqulik fursat. Ammo mamlakatimizda ana shu qisqa vaqt ichida olamshumul o‘zgarishlar yuz berdi.


O‘z hayotim misolida oladigan bo‘lsam, uch amakim ichki ishlar organlarida turli lavozimlarda faoliyat ko‘rsatib, izzat-ikrom bilan pensiyaga chiqishdi. Mening maqsadim ularning ishini davom ettirishni – el-u yurtimiz osoyishtaligini ta’minlash yo‘lida xizmat qilish edi. Ushbu orzuyim mustaqillik tufayli ro‘yobga chiqdi. Andijon muhandislik-iqtisodiyot institutini bitirgach, dastlab qo‘riqlash xizmatida ish boshladim. Oradan ikki yil o‘tgach, Andijon viloyati IIB taftish bo‘limi inspektor-taftishchisi etib tayinlandim. Hozirda esa viloyat IIB JXX YHXB moliya va moddiy-texnika ta’minoti bo‘limi boshlig‘i lavozimida faoliyat ko‘rsatyapman.

Jonajon yurtimizda huquq-tartibot va qonuniylikni ta’minlashga ozmi-ko‘pmi hissa qo‘shayotganimdan faxrlanaman. Tilagim, eng katta boyligimiz – mustaqilligimiz abadiy, osmonimiz hamisha musaffo bo‘lsin!

Ziyodullo ISAYEV,
katta leytenant.

KECHA VA BUGUN





Наставничество



РАВНЯЯСЬ НА СТАРШИХ КОЛЛЕГ

В органах внутренних дел существует незыблемое правило: за каждым молодым сотрудником закрепляется опытный наставник.

Старший лейтенант Абдулазиз Атхамбоев уроженец Паркентского района. В 2020 году он успешно окончил Академию МВД Республики Узбекистан. Служит в должности дознавателя следственного отделения при ОВД Паркентского района. Его наставником является начальник СО майор Табиддин Шохобов, который щедро делится опытом и знаниями.

Молодой специалист, следуя советам учителя, постоянно работает над углублением профессиональных знаний, равняется на старших коллег. За истекший период текущего года им расследовано 46 уголовных дел, в том числе связанных с кражами, мошенничеством, хулиганством, ДТП, нанесением телесных повреждений и др.

– Убежден, деятельность в следственном звене – призвание старшего лейтенанта Абдулазиза Атхамбоева. Он эрудирован, теоретически подкован в области права и правоприменения, обладает качествами, важными для нашей службы – ответственен, наблюдателен, внимателен к деталям, – отмечает майор Табиддин Шохобов. – Рад, что ученик не останавливается на достигнутом. В нем заложен потенциал для дальнейшей отличной службы. Это – самое главное.

Шерзод АБДУСАМАДОВ,
соб. корр.

На снимке: *старший лейтенант А. Атхамбоев (слева) с наставником майором Т. Шохобовым.*

Ташкентская область.

Ровесники независимости

ЧУВСТВО ОТВЕТСТВЕННОСТИ



Старший лейтенант Хабибулло Зикиров – инспектор профилактики махалли Зарафшон Джамбайского района.

Родился и вырос он в Булунгурском районе. После окончания Национального университета Узбекистана работал учителем в общеобразовательной школе. Желание посвятить себя делу укрепления в обществе правопорядка привело его в 2020 году в органы внутренних дел. С этого момента он служит инспектором профилактики в махалле Зарафшон.

– Мы живем в многонациональном государстве, в мире и взаимопонимании. Каждый из нас должен ценить царящие в стране благополучие, добрососедство, – говорит старший лейтенант Х. Зикиров. – В республике происходят процессы обновления – вместе мы строим Новый Узбекистан, устремленный в будущее. Чувствую личную ответственность за судьбу Родины, горжусь, что служу своему народу.

Соб. корр.

Самаркандская область.

Ветераны – наша гордость

ВЫДЕРЖАЛА ВСЕ ИСПЫТАНИЯ

Сотрудники органов внутренних дел с огромным уважением относятся к ветеранам, тем, кто посвятил себя благородному делу обеспечения мира и согласия в обществе.



Тамара Сергеевна Зинченко родилась 15 марта 1927 года в Куйбышевской области (ныне Самарская область) России. Ее детство пришлось на тяжелые времена коллективизации.

Отец Тамары был военным, с семьей прибыл в Самарканд.

Началась Вторая мировая война. Глава семьи ушел на фронт. Мать тянула на себе быт и детей, но после того, как заболела, вся ответственность легла на плечи Тамары. Не покладая рук, она работала, помогала фронту. Как бы ни было тяжело, всегда была готова прийти на помощь другим. Жизнь испытывала ее на прочность...



В 1944 году, поступив в Ташкентскую школу милиции, Тамара стала одной из первых девушек-курсанток. После окончания обучения служила в подразделениях милиции в Самаркандской области, затем в учреждениях исполнения наказания в Кашкадарьинской, Бухарской областях. Приобретенный опыт способствовал тому, что в последующем в течение длительного времени она результативно работала в спецотделе, паспортной службе ОВД города Карши.

Тамара Сергеевна трудилась, проявляя огромную ответственность, самодисциплину, чем заслужила уважение коллег. Следуя ее примеру, в органы внутренних дел пришло немало женщин.

Для личного состава Т. Зинченко была непререкаемым авторитетом. В сложных ситуациях сотрудники обращались к ней за советом. Ее мнение было важно и значимо.

За образцовую службу в ОВД героиня очерка награждена почетными грамотами, нагрудным знаком «Отличник милиции», медалью «За отвагу» и др.

В 1976 году в звании капитана Т. Зинченко вышла на заслуженный отдых.

Следует отметить, что самоотверженный труд Тамары Зинченко в годы войны также высоко отмечен государством. Она гордится медалями, среди которых есть и «За победу над Германией».

Указом Президента Узбекистана участник тылового фронта, ветеран органов внутренних дел, капитан в отставке Т. Зинченко удостоена медали «Жасорат».

Тамара Сергеевна в настоящее время проживает в Карши. От всего сердца желаем ей здоровья и бодрости духа!

Замира РУСТАМОВА,
подполковник.

Маҳалла тинч – юрт тинч

БЕШЛИКНИНГ ИШИ «БЕШ» БЎЛИШИ КЕРАК

Мамлакатимиз тараққиётининг янги босқичида маҳалланинг ўрни ва мавқеи юксалиб бормоқда. Бугунги кунда маҳалла фуқаролар йиғини раиси, ҳоким ёрдамчиси, ёшлар етакчиси, хотин-қизлар фаоли ҳамда профилактика инспекторидан иборат бешлик халқимиз фаровонлиги йўлида сидқидилдан меҳнат қилишмоқда. Мулоҳазаларимизни Кармана тумани «Дўрмон» маҳалласи мисолида давом эттирсак.



Ушбу маҳаллада 3123 нафар аҳоли истиқомат қилади. Бу ерда кичик ҳунармандлардан тортиб йирик тадбиркорлик билан шуғулланадиган инсонларгача бисёр. «Дўрмон» нафақат туманда, балки вилоятимиздаги намунали маҳаллалардан саналади.

Маҳалла гузарида жойлашган нуронийлар маскани, мўъжаз кутубхона, спорт майдони ва болалар ўйингоҳи, шунингдек ҳунармандларнинг маҳорат дарсхоналари маҳалланинг ёшу қарисига беминнат хизмат қилмоқда. Аҳолининг муаммоларини ҳал қилишда маҳалла бешлиги фаолиятини алоҳида эътироф этиш лозим.

Кармана тумани ИИБ ЖХХ ҲПБ профилактика катта инспектори, майор Фаёз Жумаев маҳалла раиси Деҳқон Эшмуратов, хотин-қизлар фаоли Меҳри Абсаломова, ҳоким ёрдамчиси Рўзимат Холиқов ҳамда ёшлар етакчиси Салоҳиддин Тоғаев билан мунтазам ҳамкорликда, бамаслаҳат иш кўради. Муаммоли оилами, ишсиз фуқаро ёки қаровсиз қолган болакай борми: бари-барига шу бешлик жон куйдиради.

– Маҳаллада 47 нафар шахс профилактик ҳисобда туради. Улар билан мунтазам тушунтириш ишлари олиб боряпмиз. Ишсизларни фойдали меҳнатга жалб этяпмиз. Имтиёзли кредитлар ажратилиб, тадбиркорликни йўлга қўйишида амалий кўмак беряпмиз. Қўлни қўлга бериб, маҳалламизни осуда, тинч ва файзли масканга айлантиришга ҳаракат қиляпмиз, – дейди майор Фаёз Жумаев.

– Йил бошида 85 нафар хотин-қиз «Аёллар дафтари»га киритилган эди, – дея суҳбатимизга қўшилди Меҳри опа Абсаломова. – Ҳозирда 27 нафар ишсиз, шу жумладан 11 нафар хотин-қиз иш билан таъминланди.

Яқинда сектор раҳбари, мутасаддилар ва маҳалла аҳли иштирокида «Обод ва хавфсиз маҳалла» тамойили асосида тарғибот тадбири ташкил этилди. Унда маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш учун ажратилган имтиёзли кредитлар, ёшлар ва хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш борасида амалга оширилган ишлар ҳамда профилактика инспекторининг жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликка қарши курашиш йўналишидаги фаолияти муҳокама қилинди.

Маҳлиё ХОЛОВА,
ўз мухбиримиз.

Навоий вилояти.

Мустақиллик тенгдошлари



КИТОБЛАР – ЭНГ ЯҚИН ДЎСТЛАРИМ

– дейди сафдор Лочинбек Аъзамжонов

Фарғона шаҳар ИИОФМБ таъминлаш бўлинмалари ҳайдовчиси, сафдор Лочинбек Аъзамжонов юртимиз осмонида истиқлол қуёши порлаган 1991 йили Бағдод туманидаги Хитой қишлоғида таваллуд топган.

Лочинбек Фарғона политехника институтига ўқишга кириб, уни тамомлаганидан сўнг институтдаги лабораторияда ишлаб, қўшимча равишда магистратура босқичида ҳам таҳсил олди.

– Гарчи энергетика муҳандислиги йўналишида ўқиган бўлсам-да, ички ишлар органларига бўлган қизиқишим сира тинчлик бермади, – дейди қаҳрамонимиз. – 2021 йил август ойида шу соҳада хизматни бошладим.

Қаҳрамонимиз келгусида офицерлар таркибига ўтиб, юқори махсус унвонларни олишни ният қилади. Соҳа ходимлари ўртасида ўтказилаётган кўрик-танловлар, интеллектуал ўйинлар ва спорт мусобақаларида ҳам фаол қатнашиб келяпти. Хусусан, жорий йилнинг июль ойида ички ишлар органлари ёш ходимлари ва ҳарбий хизматчилари ўртасида ўтказилган «Аждодлар изидан» интеллектуал ўйинининг республика босқичида муваффақиятли қатнашиб, иккинчи ўринни эгаллади.

Лавҳамиз қаҳрамони бахтли оила соҳиби. Турмуш ўртоғи Дилором билан аҳилликда уч нафар фарзандни камолга етказмоқда.

– Бўш вақт топсам, кутубхонага ошиқаман, – дейди Лочинбек. – Фарғона вилояти ИИБ қошидаги ахборот-кутубхона маркази ҳамда Аҳмад Фарғоний номидаги вилоят кутубхонаси аъзосиман. Бадиий асарлар билан бирга, сиёсий-ҳуқуқий китобларни мутолаа қилишни яхши кўраман. Бундан ташқари, Ёшлар ишлари агентлиги томонидан ўтказиладиган китобхонлик билан боғлиқ танловларда ҳам қатнашиб тураман. Хуллас, китобларни энг яқин дўст, деб биламан.

Абдувосит СИДИҚОВ,
ўз мухбиримиз.

Фарғона вилояти.

Хизматларда

МАШҒУЛОТЛАРДА ФАОЛ БЎЛИШ МУҲИМ


Оммавий тадбирлар ўтказилаётган жойларда ҳамда тартибсизликлар ва фавқулодда вазиятлар юзага келган ҳолатларда жамоат тартибини сақлашда отлиқ гуруҳ аъзоларининг ўрни бўлакча. Андижон вилояти ИИБ ЖХХ ЖТСБ таркибидаги отлиқ гуруҳ ходимлари юрт осойишталиги йўлида сидқидилдан хизмат қилиб келишмоқда.

— Отларни хизматга шай ҳолатда сақлашнинг асосий сирларидан бири уларни меҳр билан парвариш қилишдир, — дейди катта сержант Бекзодбек Абдужалилов. — Шунингдек, ходим от миниб юриш кўникмаларини ўзлаштириши учун машғулотларда фаол бўлиши зарур. Бу эса ППХ отлиқ гуруҳи ходимларининг тадбирлар давомида бошқа соҳавий хизматлар вакиллари билан уйғун ҳолда ҳаракат қилишида муҳим аҳамиятга эга. Буни ҳис қилган ходимлар машғулотларга масъулият билан ёндашади.

Гуруҳ ходимлари Миллий гвардиянинг Андижон вилояти чавандозлар мактаби мутахассислари билан ҳамкорликни йўлга қўйишган. Ходимлар келгусида мамлакатимиз ва хорижий давлатларда ўтказиладиган мусобақаларда муносиб иштирок этишни мақсад қилган ҳолда чавандозлик сирларини пухта ўзлаштиришмоқда.

Хизматни самарали ташкил этишда уловларнинг ўрни беқиёс. Шу боис гуруҳ ходимлари отларнинг еб-ичиши ва саломатлигига алоҳида эътибор қаратади. Бу борада ветеринар-фельдшер Маъмиржон Ҳасанов ҳамкасбларидан маслаҳатларини аямайди.

Жаҳонгир СОДИҚЖОНОВ,
катта сержант.





МАҚСАДЛАР ДОВОНИНИ ЗАБТ ЭТИБ...

Алишер Наманган давлат университетининг жисмоний маданият факультетини тамомлагач, бир муддат Чортоқ спорт коллежида ишлади. 2020 йилда ички ишлар органларига қабул қилиниб, тумандаги «Тенгдош» маҳалла фуқаролар йиғини профилактика инспектори этиб тайинланди. Аҳоли билан тез тил топишиб, ёшлар ҳамда вояга етмаганларга алоҳида эътибор қаратди. 2022 йилнинг октябрь ойида Алишер Холматовни «қизил» тоифадаги «Мустақиллик» маҳалла фуқаролар йиғини осойишталигига масъул этиб тайинлашди.



– Катта лейтенант Алишер Холматовнинг салоҳияти бу ерда ҳам тез кўзга ташланди, – дейди туман ИИБ ҲПБ бошлиғи, подполковник Муродилло Юнусов. – Янги ҳудудда хизмат фаолиятини бошлагандан кейин 6 ой ўтгач, маҳалла «сариқ» тоифага ўзгартирилди. Ютуқларидан бири шуки, у маҳалла фаоллари билан биргаликда тунги рейдлар ўтказиб, аниқланган ҳолатлар бўйича дарҳол тегишли чоралар кўради. Хизматга бундай ёндашув, шубҳасиз, жиноятга мойил шахсларни ҳам қайсидир маънода чўчитиб туради. Бу эса, ўз-ўзидан, ҳудудда криминоген вазият яхшиланишига олиб келади.

Профилактика инспектори А.Холматовнинг ташаббуси билан маҳаллада истиқомат қилувчи уюшмаган ёшлар учун волейбол, футбол, стол тенниси бўйича тўгараклар фаолияти йўлга қўйилган. Улар ўртасида мунтазам равишда мусобақалар ўтказиб келинмоқда.

– Бундан кўзлаган мақсадимиз ёшларнинг вақтини мазмунли ўтказишига кўмаклашишдир, – дейди катта лейтенант Алишер Холматов. – Негаки, жиноятларнинг аксарияти бекорчиликдан келиб чиқади. Спорт эса уларни билиб-билмай жиноят кўчасига кириб қолишдан асрайди.

Маҳалла фуқаролар йиғини раиси Машҳура Акбарованинг айтишича, Алишер Холматов ажрим ёқасидаги оилаларни яраштиришда маҳалланинг ёши улуғлари ва фаолларининг ҳаётий тажрибаларига таяниб иш кўраётгани қўл келмоқда.

Гулчеҳра БУВАМИРЗАЕВА,
ўз мухбиримиз.
Наманган вилояти.

Деятельность рабочей группы

Республиканская рабочая группа в составе ответственных сотрудников соответствующих отраслевых служб изучает деятельность учреждений исполнения наказания. Очередными объектами изучения стали УИН 3-й региональной территории Департамента исполнения наказания при МВД, расположенные в Самаркандской области.



По итогам на базе колонии-поселения № 38 с участием членов Республиканской рабочей группы и личного состава учреждений состоялось совещание.

Рассмотрены вопросы, касающиеся дальнейшего повышения эффективности взаимодействия территориальных органов внутренних дел с учреждениями исполнения наказания, предупреждения нарушения специальным контингентом установленных правил, укрепления среди сотрудников дисциплины и законности, реализации мер по их социальной защите.

Поставлены задачи и определены конкретные сроки по устранению недостатков, выявленных в ходе проверки.

Шахризод ШОКИРОВ,
старший лейтенант.



Конституционные основы адвокатской деятельности

Глава XXIV. Адвокатура
Статья 141.


Для оказания профессиональной юридической помощи физическим и юридическим лицам действует адвокатура.

Деятельность адвокатуры основывается на принципах законности, независимости и самоуправления.

Организация и порядок деятельности адвокатуры определяются законом.

Короткой строкой

Инспекторами профилактики ОПП СОБ ОВД Язъяванского района Ферганской области на территории МСГ «Сойбуйи» с участием понятых была осуществлена проверка грузового автомобиля Isuzu, припаркованного на обочине дороги. У гражданина Г. А., находившегося в кабине автомобиля на пассажирском сиденье,



обнаружено наркотическое средство «гашиш».

По данному факту СО при ОВД Язъяванского района возбуждено уголовное дело по пункту «а» ч. 2 ст. 276 УК Республики Узбекистан, ведутся следственные действия.

Есть такая служба

НА СТРАЖЕ ПРАВОПОРЯДКА

Профилактика правонарушений и преступлений – важнейшая задача сотрудников ППС. Сам факт того, что они патрулируют улицы, иные общественные места, сдерживает определенную часть злоумышленников от противоправных действий. Законопослушные граждане, при виде их, чувствуют себя в безопасности.



С начала года сотрудниками батальона ППС УООП СОБ УВД Бухарской области раскрыто 38 преступлений, около 30 – раскрыто с их участием. Кроме того, представители службы во взаимодействии с оперативниками установили местонахождение 14 разыскиваемых лиц, задержали 12 лиц.

Личный состав батальона не снижает уровень бдительности. За истекший период текущего года в отношении 6 880 лиц, совершивших правонарушения в Бухаре, Кагане, а также Гиждуванском районе, приняты меры, предусмотренные законом.

Наряды ППС готовы прийти на помощь гражданам в любое время суток, при любых погодных условиях. Они первыми прибывают на место преступления, оперативно принимают меры по задержанию злоумышленников, оказанию помощи пострадавшим.

Стражи порядка работают в тесном контакте с инспекторами профилактики, сотрудниками уголовного розыска, следственного звена, инспекторами ДПС, экспертами-криминалистами. Такое взаимодействие эффективно в профилактике правонарушений, раскрытии преступлений по горячим следам.

В результате проведенных оперативных мероприятий у 769 лиц выявлено наличие 789 колюще-режущих предметов. С гражданами проведена разъяснительная работа. В отношении 168 из них инспекторами профилактики приняты административные меры.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.
Бухарская область.

Ўлмас битиклар



Одам ота-онасини танлаёлмаганидек, Ватанни ҳам танлаёлмайди. Албатта, Аллоҳ одамга Ватанни музликлардан ҳам, саҳролардан ҳам, чангалзорлардан ҳам ато этиши мумкин. Лекин сиз билан бизга Аллоҳ Ўзбекистон деб аталган, тупроғида олтин гуллайдиган, қишларида баҳор шивирлайдиган, тоғ деса тоғи бор, боғ деса боғи бор, ҳар тонгда булбуллар мадҳини ўқиб тамом қилолмайдиган бир юртни Ватан қилиб берган экан, бунинг учун ўзимизни БАХТЛИ деб билмоғимиз керак. Президентимиз айтганидай, шукроналар билан яшамоғимиз керак. Ватан бизга ато этилган улуғ неъмат экан, Ватанга муҳаббат ҳам ҳар биримизга берилган улуғ неъматдир.

Озод ШАРАФИДДИНОВ,
Ўзбекистон Қаҳрамони.

Патруль шаҳар кезади

БИР-БИРИГА ЎХШАМАГАН КУНЛАР



Самарқанд вилояти ИИБ ЖХХ ЖТСБ ППХ батальони ходимларининг фаолият ҳудуди йил бошида кенгайди. Улар энди нафақат Самарқанд шаҳрида, балки Нарпай, Пахтачи ва Каттақўрғон туманлари марказларида ҳам аҳоли осойишталигини, жамоат тартибини сақлашмоқда. Ушбу соҳа вакилларининг хизмат кунлари турлича кечади. Баъзан маст-аласт, қаттиқ асабийлашган шахслар билан мулоқот қилишларига, ҳатто ўз ҳаётларини хавф-хатар остига қўйишларига ҳам тўғри келади.

Шунинг учун батальон командирининг ўринбосари, майор Шуҳрат Алланов уларга кундалик йўриқнома чоғида қайси вазиятда ўзларини қандай тутишлари лозимлигини эслатади. Шунингдек, хизмат ҳудудларидаги криминоген ҳолат тўғрисида маълумотларни етказади.

– Яқинда 3-отряд ходимлари 40 ёшлардаги шубҳали фуқарони тўхтатишди. Унинг шахсини аниқлаш жараёнида фирибгарлик жинояти содир этгани учун бир йил мобайнида ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларидан яшириниб юргани маълум бўлди. Йил бошидан буён 47 нафар қидирувдаги шахс қўлга олинди, 6 нафар бедарак йўқолган фуқаро топилди, – дейди подполковник Шуҳрат Алланов.

Рақамларга мурожаат этадиган бўлсак, жорий йилнинг 7 ойи давомида батальон ходимлари бошқа соҳавий хизматлар вакиллари билан ҳамкорликда 83 та жиноятни фош этишди. Бундан ташқари, 25 мингдан зиёд маъмурий ҳуқуқбузарликларни аниқлашди. Жамоада устоз-шогирдлик анъаналари бардавом. Тажрибали ходимлар мураббий сифатида ёшларга соҳа сир-асрорларини ўргатиб келишмоқда.

Замира БОЛТАЕВА,
ўз мухбиримиз.
Самарқанд вилояти.

Карантин хизмати

БИР ТОННАДАН ЗИЁД ЯРОҚСИЗ ГЎШТ

Тошкент шаҳар ИИББ ЖТСБ Карантин тадбирларини таъминлаш гуруҳи шахсий таркиби истеъмолга яроқсиз гўшт маҳсулотларини ўтказмоқчи бўлган нопок кимсаларнинг қинғир ишларини фош этишди.

Жорий йилнинг 10 август куни Чилонзор тумани Бектўпи бозори яқинида Самарқанд вилояти Каттақўрғон туманида туғилган Қ. Холбоев бошқарувидаги «Isuzu» русумли автоулов тўхтатилиб текширилганда, унинг юкхонасида ветеринария-санитария қоидаларига зид, келиб чиқиши номаълум бўлган, бирламчи ветеринария ҳужжатларисиз гўшт маҳсулотларини Тошкент шаҳрида сотиш мақсадида олиб кетаётганлиги аниқланди.

— Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бошқармасининг хулосасига кўра, фуқаро К. Холбоевга тегишли тахминан 1111 кг гўшт истеъмолга яроқсиз, деб топилганлиги сабабли утилизация қилинди, – дейди Тошкент шаҳар ИИББ ЖТСБ Карантин тадбирларини таъминлаш гуруҳи бошлиғи, лейтенант Азизбек Ҳайитов. — Фуқаро К. Холбоев эса МЖтКнинг тегишли моддасига асосан, жаримага тортилди.

Абу КЕНЖАЕВ,
ўз мухбиримиз.

Суратда: *лейтенант А.Ҳайитов Тошкент шаҳар Ветеринария бошқармаси ходимлари билан.*



Ровесники независимости

ЧЕСТЬ СЛУЖИТЬ РОДИНЕ

32 года назад была провозглашена государственная независимость Узбекистана. За исторически короткий период республика достигла огромных успехов и заняла достойное место в мировом сообществе.



– Быть ровесником независимости страны – это и честь, и большая ответственность. Стремлюсь оправдать не только надежды родителей, но и своей Родины, – говорит командир отделения 3-го отряда батальона ППС УООП СОБ УВД Андижанской области рядовой Бехзод Собиров. – Горжусь, что родился в год обретения страной независимости. Как говорится в пословице, «человек без мечты, что птица без крыльев». Исполнилась моя мечта юности, я – сотрудник органов внутренних дел.

С 2013 года служу в батальоне ППС, в настоящее время являюсь командиром отделения. Основная цель нарядов – профилактика правонарушений, укрепление общественного порядка. Если у кого-то случается беда, первыми на помощь приходят сотрудники патрульно-постовой службы. На нас возложена задача обеспечивать безопасность граждан, чтобы в городах, районах, махаллях было спокойно.

Наша страна добилась больших успехов. Узбекистан входит в число самых безопасных стран мира. В этом немалая заслуга верных служебному долгу стражей правопорядка.

Рядовой Бехзод Собиров убежден: главное – не забывая прошлое, уверенно шагать в будущее.

– Мы родились и выросли в независимой стране. Надо ценить мир, оберегать его как зеницу ока. Знания, полученные от старшего поколения, накопленный опыт применять во благо государства и народа, – отмечает молодой человек. – Хочу пожелать сверстникам-коллегам добиваться поставленных больших целей, чтобы все задуманное осуществилось. Пусть небо над нами будет светлым, всем соотечественникам – здоровья и счастья!

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

Андижанская область.

■ Республика Каракалпакстан

ОПЫТНЫЙ ИНСПЕКТОР ТУРТКУЛЯ

На территории аула разгорелся скандал. Старший инспектор профилактики подполковник Даулетмурат Базарбаев сразу же прибыл на место происшествия. На обочине сельской улицы шумели, размахивали руками несколько женщин.



Инспектор профилактики успокоил конфликтующие стороны, начал разбираться в причинах ссоры. Выяснилось, что одна из женщин назвала дочь соседки «девушкой легкого поведения». На вопрос, где девушка, которую оскорбили, собравшиеся ответили, что она у себя в комнате, прячется. «Сторонится всех. Как бы не натворила глупостей...», – подумал инспектор и в сопровождении родственниц уязвленной направился к ее дому...

Герой очерка подполковник Д. Базарбаев – один из лучших инспекторов профилактики РОВД. Родился он в Шуманайском районе в 1970 году. В органах внутренних дел около 30 лет. Начинал помощником дежурного дежурной части ОВД Шуманайского района. Обучался на заочном отделении юридического факультета Каракалпакского государственного университета имени Бердаха. С 2013 года в службе профилактики, а с 2017 года является старшим инспектором профилактики ОПП ОВД. За этот период раскрыл несколько преступлений.

В зоне личной ответственности подполковника Д. Базарбаева – территория схода граждан аула «Окбошли». В результате эффективной организации деятельности за истекший период текущего года здесь не допущено совершения ни одного преступления.

– На вверенной территории проживает более 12 000 человек. Работаем в контакте с активистами схода граждан, изучаем проблемы, волнующие селян. Оформлены 62 заключения, касающиеся оказания поддержки гражданам в том или ином вопросе, порядка 20 из них положительно разрешены, – говорит подполковник Д. Базарбаев.


Герой очерка хорошо понимает, что об эффективности деятельности инспекторов профилактики люди судят в том числе и по тому, насколько сотрудники оперативно и профессионально реагируют на обращения. Подполковник Д. Базарбаев, наряду с обеспечением общественной безопасности, оказывает жителям необходимое содействие в разрешении различных житейских проблем, что способствует выстраиванию доверительных отношений с гражданами.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.

Ma’naviyat va ma’rifat darsi

QATAG‘ON QURBONLARI — ISTIQLOL FIDOYILARI

Tarixiy haqiqatni qaror toptirish, ona Vatanimiz ozodligi va erkinligi yo‘lida qurbon bo‘lgan xalqimizning suyukli farzandlari nomini tiklash, ularning hayoti va faoliyatini o‘rganish hamda tadqiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Zero, milliy mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimiz rivoji va uning taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladigan avlodni tarbiyalashda ularning ibratli hayoti va ma’naviy merosining o‘rni beqiyosdir.



Mustaqillikning ilk yillaridan yurtimizda tinchlik, Vatan ozodligi yo‘lida kurashib qurbon bo‘lgan xalqimiz qahramonlarining hayoti, ularning faoliyati, ilmiy va ma’naviy merosini o‘rganish va tadqiq etishga e’tibor berila boshlandi. Xususan, 2000-yilning 12-mayida Toshkent shahrining Yunusobod tumanida «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui tashkil etildi. Bu uzoq kutilgan tarixiy haqiqatning qaror topishi bo‘ldi. «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui va «Qatag‘on qurbonlari xotirasi» muzeyi poytaxtimizning eng gavjum ziyoratgohlaridan biriga aylandi.

O‘tgan davr mobaynida biz bilgan, ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Fayzulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat kabilarni o‘rganish bilan bir qatorda, qatag‘on qurbonlari Otajon Hoshimov, Sotti Husayn, Vadud Mahmud kabi olimlarning ilmiy ijodi jamoatchilikka qaytadan tanishtirildi. Ana shunday ko‘pchilikka ma’lum bo‘lmagan milliy adabiyotimizning zabardast vakillaridan biri 1938-yil qatag‘oni oqibatida otib tashlangan zahmatkash o‘zbek olimi Miyon Buzruk Solihovdir. Milliy madaniyatimiz tarixini o‘rganishga munosib hissa qo‘shgan bu zot 1891-yilda Toshkent shahrida Sho‘rtepa masjidining imomi Miyon Solih xonadonida dunyoga kelgan. U avval eski maktabda, 1910–1915-yillarda esa Degrez ko‘chasida joylashgan madrasada tahsil oladi. Ta’lim jarayonida diniy bilimlar bilan birga, arab va fors tillarini ham puxta egallashga harakat qiladi.

Ko‘pchilik o‘zbek jadid ziyolilari kabi, 1917-yil voqealari Miyon Buzruk Solihov ongida ham o‘zgarish yasaydi. U qizg‘in kechayotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarga aralasha boshlaydi. Tez orada Turkiston milliy ozodlik harakatining faol a’zolaridan biriga aylanadi.

Ma’lumki, 1917-yilning 14-martida Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Ubaydulla Xo‘jayevlar boshchiligida «Sho‘royi islomiya» tashkiloti tuziladi. Ushbu tashkilot ishlarida Miyon Buzruk ham faol ishtirok etadi. Shu yilning 6-avgustida Toshkent shahar dumasiga saylovlar bo‘lib o‘tadi. Bu saylovda «Sho‘royi islomiya» tashkiloti ko‘rsatgan nomzodlardan o‘n bittasi g‘olib chiqadi. Ana shular orasida Miyon Buzruk Solihov ham bor edi. U shahar dumasi bolsheviklar tomonidan tarqatib yuborilguniga qadar (1917-yil dekabr) «Sho‘royi islomiya» dan saylangan vakil sifatida duma ishlarida qatnashadi. 1917-yilning yozida esa Bokudan «Musovat» partiyasining faol a’zosi Muhammad Amin Afandizoda Toshkentga keladi va mahalliy ziyolilar orasida «Ittihod va taraqqiy» tashkilotini tuzishga boshchilik qiladi. Yangi tuzilgan tashkilotga Munavvarqori Abdurashidxonov rais, Ubaydulla Xo‘jayev hamda Miyon Buzruklar muovin etib saylanadi.



1930–1936-yillarda Miyon Buzrukning Qashqar mahallasidagi hovlisida Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon», «Obid ketmon» kabi asarlarini rus tiliga o‘girgan tarjimon L. Sotserdotova yashagan va u bilan yaqin ijodiy hamkorlikda bo‘lgan.

Miyon Buzruk Solihov 1936–1937-yillarda avval Samarqand universitetiga, u yerdan Buxoro davlat pedagogika institutiga ta’lim berish uchun yuboriladi. Oradan bir yil o‘tib, 1937-yilning yozida Buxoro pedagogika institutida ishlab turgan Miyon Buzruk Solihov mehnat ta’tilini o‘tkazish uchun oilasi yoniga, Toshkentga qaytadi. Olim mana shu ta’tildalik paytida, aniqrog‘i, 7-avgustda NKVD xodimlari tomonidan hibsga olinadi.

Ayblovlarning aksariyati uydirma bo‘lib, o‘zbek ziyolisini, millat fidoyisini jismonan yo‘q qilishga qaratilgan edi. Xususan, ayblardan biriga ko‘ra, u «Yozuvchi Hoji Muin Shukrullayev orqali Angliyaning O‘zbekistondagi ayg‘oqchisi Said Afandi bilan tanishgan va josuslik ishiga yollangan. Ikkinchi aybga ko‘ra esa Miyon Buzruk Munavvarqori o‘limidan so‘ng O‘zbekiston ichkarisidagi milliy aksilinqilobiy tashkilot rahbarligini o‘z zimmasiga olgan.

Yuqoridagi ayblardan kelib chiqib, sudda unga «burjua millatchisi», «Angliya josusi», «aksilinqilobiy tashkilotlar yo‘lboshchisi» kabi ayblar qo‘yiladi va o‘lim jazosiga hukm etiladi. Hukm 1938-yil 17-dekabrda ijro etiladi. 1957-yilda qatag‘on qurboni bo‘lgan ko‘pgina o‘zbek ziyolilari qatorida Miyon Buzruk Solihov ham oqlanadi.

Mana shunday yurtparvar vatandoshlarimiz qatag‘on qilinishining asl maqsadi, millat fidoyilarining yurt mustaqilligi uchun kurashuvchi kuchga aylanishidan hayiqish edi. Sho‘ro qattollari nafaqat bu shaxslarning o‘zlarini, balki ularning norasida farzandlari, oila a’zolarini ham jazolash va qamash yo‘lidan borgan edi. Masalan, Miyon Buzruk Solihovning o‘g‘li Mazhar Solihov o‘sha yillarda universitet talabasi edi. Unga «xalq dushmani» ning o‘g‘li sifatida ayb qo‘yilib, talabalar safidan chiqariladi. Norasida singlisi Nuriya esa bolalar uyiga yuborilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarga monand, 2020-yilning 8-oktabr kuni «Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ularning xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Prezident farmoyishi qabul qilindi. Unga binoan, qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimizning avlodlari va yaqinlari, o‘sha davr voqealarini chuqur biladigan kishilarning xotiralarini yozib olish, oilaviy arxiv va kutubxonalarda saqlanayotgan tarixiy materiallarni, noyob suratlarni to‘plash ishlarini muvofiqlashtirish belgilandi.

Shuningdek, aniqlangan qatag‘on qurbonlarining nomlarini Toshkent shahridagi «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuasida barpo etiladigan ramziy kitob sahifalariga kiritish, shahid bo‘lgan yurtdoshlarimiz xotirasini kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish maqsadida ko‘p jildlik «Qatag‘on qurbonlari» kitobi nashrga tayyorlanishi va chop etilishi belgilandi. Bundan tashqari, «Qatag‘on qurbonlari xotirasi» davlat muzeyi hamda uning hududlardagi oliy ta’lim muassasalari qoshidagi bo‘limlarining fondlari va ekspozitsiyalarini yangi topilgan ma’lumotlar, hujjatlar va boshqa eksponatlar bilan muntazam ravishda boyitib borilishini tashkillashtirish kabi muhim tadbirlar belgilab berildi.

Mustaqillik tufayli xalqimiz kutgan va uzoq yillar intilib kelgan adolat qaror topdi. Bugun navqiron O‘zbekistonni dunyo davlatlari tan olib, o‘tmishi ulug‘ va kelajagi porloq yurt sifatida hamkorlik, diplomatik munosabatlar o‘rnatmoqda, yurtimiz jahonda o‘z o‘rniga ega davlat sifatida baholanmoqda. Bunday tinch va osuda, farovon kunlarning har daqiqasiga shukur qilib, o‘zini shu ona Vatan farzandi degan har bir shaxs uchun ozodlik, farovonlik va tinchlik ne’matini asrash ham farz, ham qarzdir.

Asrorjon SATTOROV,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, mayor.

Фахрийлар – фахримиз

БИТТА МАРД – БИР ЭЛГА РИЗҚ

1986 йил баҳор кунларининг бири. Осмон булут, майингина ёмғир ёғаётган маҳал. Уйидан тушлик қилиб қайтаётган катта лейтенант Шуҳрат Аҳмедов катта йўл бўйидаги дўкон олдида тўхтади. Дўконга кираётиб эса, бир танишини кўриб қолди. У билан саломлашгач, таниши шошилганча кўчада турган икки кишини кўрсатиб, «Ҳов анови одамларни кўряпсизми, улар ҳозиргина биттасини пичоқлашди. Уларни ушлоласизми?», деди. Катта лейтенант «Қуролим йўғ-у, лекин ушлайман», дея кўчадаги икки кишига қаради.



Ўйлаб ўтиришга вақт йўқ эди. Улар дўкондан чиқиб, машинага ўтиришаётганида жиноятчилар катта йўлга қараб кетаётган эди. Машина улардан илдамлаб, йўлини кесиб чиқишди. Шуҳрат танишини қолдириб, машинадан тушди. Унинг важоҳатидан икки жиноятчи бироз каловланиб, тўхтаб қолди, сўнг нима бўлаётганини фаҳмлашди, шекилли, орқасига қараб қочишди. Шуҳрат уларга етиб олди-да, бирини ушлади ва бармоғини тўппончага ўхшатиб бошига тираганча бақирди: «Тўхта! Бўлмаса, отаман!!!»

Ходимнинг ҳийласига учган жиноятчилар жойида қотди. Бу орада таниши бошқа одамларни ёрдамга чақириб келиб, жиноятчиларнинг қўлини қайириб, ерга ётқизишди. Сўнгра Денов тумани ИИБ навбатчилик қисмига хабар беришди. Бироздан кейин жиноятчиларни олиб кетишди. Уларнинг ёнидаги халтадан бироз ичилган вино идиши ва қонга беланган пичоқ чиқди.

Бу пайтда довюрак Шуҳрат Аҳмедов Денов тумани ИИБ Миграция ва фуқароликни расмийлаштириш бўлими бошлиғи вазифасида ишларди.

Қаҳрамонимиз 1976–1999 йилларда тизимда турли соҳаларда хизмат қилди. Хизматни дастлаб навбатчилик қисмида бошлаган Шуҳрат Аҳмедов кейинчалик вояга етмаганлар билан ишлаш соҳасида, профилактика инспектори вазифасида ишлади. Бир муддат туман ИИБ Йўл ҳаракати хавфсизлиги бўлимига ҳам раҳбарлик қилди, одамларга ёрдам беришга ошиқди.

– Фарзандларим юрт корига ярайдиган инсонлар бўлиб етишишди, – дейди қаҳрамонимиз камтарлик билан. – 2 қиз, 3 ўғилни катта қилдим. Ҳаммаси ўқиган, бугун жамиятда ўз ўринларини топишди. Ҳозирда набираларим ҳам илм йўлидан боришаётганини кўриб қувонаман. Улардан бири менинг касбимни танлаганидан кўксим фахрга тўлади.

1999 йилда капитан унвони билан нафақага чиққан Ш.Аҳмедовнинг куюнчаклиги, меҳнатсеварлиги бир неча маротаба туман ҳамда вилоят ИИБ раҳбарияти томонидан эътироф этилган.

Салкам 70 ёшни қаршилаган истеъфодаги капитан Шуҳрат Аҳмедов ўзининг ҳаётий хулосалари билан ўртоқлашаркан, ҳаётда энг муҳим нарса бу – ҳалол ва софдил бўлиб яшаш эканлигини таъкидлайди. Кимнингдир оғирини енгил қилиш, кимнингдир дардига малҳам бўлиш, яхшиликлар билан ҳаётини безаш – кишининг энг асосий маслаги деб ҳисоблайди. Ва ўзи ҳам ана шу одатларга риоя қилгани ҳолда, буларни фарзандлари, набиралари ҳамда тизимда фаолият юритаётган шогирдларига уқтиришдан асло чарчамайди.

Феруза РАҲМОНҚУЛОВА,
ўз мухбиримиз.
Сурхондарё вилояти.

ЯХШИ ШОГИРД – УСТОЗНИНГ ЮЗИ

Бекобод тумани ИИБ Фахрийлар кенгаши раиси, истеъфодаги подполковник Жалолхўжа Бўрихўжаев хизматолди йўриқномаларида иштирок этиб, хизмат интизоми ва қонунийликка риоя этиш, фуқаролар билан хушмуомалада бўлиш ҳамда ички ишлар органлари ходимлари шаънига доғ туширувчи ҳар қандай хатти-ҳаракатни содир этмаслик тўғрисида таъкидлаш билан бирга, ўзининг бой тажрибаси ва ўгитларини осойишталигимиз посбонлари шуурига сингдириб келмоқда.

Бундан ташқари, шахсий таркиб билан ўтказилаётган учрашув ва давра суҳбатларида ҳам ўзининг хизматдаги қийинчиликлари ҳамда уларни енгиб ўтиш йўллари ҳақида гапириш асносида қимматли ўгит ва ҳаётий маслаҳатларини бермоқда.

Ички ишлар органларидаги фаолиятининг асосий қисмини иқтисодий жиноятларга қарши курашиш ва уни «иссиқ изида» фош этишга бағишлаган Жалолхўжа Бўрихўжаев бу борада бир қатор ютуқларга ҳам эришиб, давлатимиз ва халқимиз манфаати йўлида сидқидилдан хизмат қилади.



Суратда: *(чапдан) туман ИИБ фахрийлар кенгаши раиси, истеъфодаги подполковник Жалолхўжа Бўрихўжаев, маънавий-маърифий ишлар бўйича ўринбосари, майор Низомиддин Қорабеков ва профилактика инспектори, лейтенант Иброҳим Раимқулов.*

… Атрофни кумуш қишнинг зийнати бўлмиш оппоқ қор қоплаган. Янги йил кириб келишига ҳам саноқли кунлар қолган эди. Бекобод аҳли байрам дастурхонига мандарин етказиб бериш мақсадида қувасойлик уч нафар савдо ходими Грузиядан 60 тонна маҳсулотни олиб келишади. Аввалига белгиланган нархда ушбу меваларни харидорларга пуллаётган тадбиркорлар, кейинчалик нафси ҳакалак отиб, меъёрни ҳам унутиб қўйишади. Бундан хабар топган Бекобод шаҳар ИИБ иқтисодий жиноятларга қарши курашиш бўлинмаси бошлиғи Ж. Бўрихўжаев уларни жавобгарликка тортиш билан бирга, мазкур товарнинг мамлакатимиз ҳудудига ноқонуний олиб кирилганлигини ҳам аниқлайди. Қилмиши фош бўлиб, «оёғи куйган товуқдек» типирчилаётган қаллоблар нима қилиб бўлса-да, ишни ёпди-ёпди қилиш мақсадида осойишталик посбонига пора таклиф этади. Аммо ўз манфаатидан халқ манфаатини устун билган ходим бу ҳолат юзасидан тегишли ташкилотга мурожаат қилади. Ўтказилган тезкор тадбир давомида бир жиноятни ёпиш мақсадида жирканч ишга қўл урган кимсалар иккинчи жиноят устида қўлга олиниб, қилган айбига яраша жазога тортилади.

– Она Ватанимиз осойишталигини мустаҳкамлашдек масъулиятли соҳада хизмат қилганимдан беҳад фахрланаман, – дейди истеъфодаги подполковник Жалолхўжа Бўрихўжаев. – Чунки мазкур тизимда фаолият юритиш ҳар қандай инсонга ғурур ва ифтихор бағишлайди.

Фидойи фахрийимиз ўнлаб шогирдлари ва тизимдаги ёшларга бор малакаси ва тажрибасини ўргатиб келмоқда.

– Соҳада қандай ютуқларга эришган бўлсам, барчасида устозимнинг ўрни бениҳоя каттадир, – дейди Тошкент вилояти ИИББ Тезкор қидирув хизмати ўта муҳим ишлар бўйича тезкор вакили, подполковник Зафар Очилов. – Менга ўргатганларини доимо ёдимда сақлаб, эндиликда шогирдларимни камол топтиришда ҳам улардан фойдаланиб келаман. Зеро, яхши шогирд устознинг юзидир.

Михли САФАРОВ,
ўз мухбиримиз.
Тошкент вилояти.

Сотрудничество

ПОЛУЧИЛИ СЕРТИФИКАТЫ МЕЖДУНАРОДНОГО УРОВНЯ

Группа сотрудников подразделений СБДД Департамента общественной безопасности МВД Республики Узбекистан посетила Турецкую Республику с целью изучения положительного опыта в сфере обеспечения безопасности дорожного движения.






На базе учебного центра, расположенного в провинции Эскишехир, состоялись десятидневные курсы, программа которых предусматривала ознакомление с мерами, реализуемыми в Турции в рамках деятельности по предупреждению ДТП, функционированием в структуре службы управления дорожным движением единой электронной системы, внедренным в крупных городах светофорного регулирования по принципу «Зеленая волна» и др.

На специализированном автополигоне прошли практические занятия по оттачиванию навыков действий в экстремальных условиях (обгон на большой скорости, осуществление перехвата, отработка приемов маневрирования), моделированию поведения участников дорожного движения в тех или иных ситуациях, тест-драйвы.

Действия наших сотрудников были высоко оценены руководством и преподавательским составом учебного центра. По окончании курсов участникам вручены сертификаты международного уровня.

Соб. корр.









Advokat o‘z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Advokatga o‘z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta’minlanadi.

Advokat, uning sha’ni, qadr-qimmati va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo‘ladi va qonun bilan muhofaza qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 142-moddasi.



Туман ИИБда

ПРОФИЛАКТИКА – ЭНГ МАҚБУЛ ЙЎЛ

Ғузор туманида қонунбузарликларнинг барвақт олдини олишга алоҳида эътибор қаратилмоқда

Саноатлашган ҳудудлардан бири саналган Ғузор тумани нафақат Қашқадарё вилояти, балки республиканинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётида ўз ўрнига, нуфузига эга. Шу боис ҳам туман Ички ишлар бўлими ходимлари жамоат тартиби ва аҳоли хавфсизлигини таъминлаш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш, турли кўринишдаги қонунбузарликларнинг барвақт олдини олишга алоҳида эътибор қаратишган. Улар хизмат вазифаларига масъулият билан ёндашаётгани туфайли жиноятлар «иссиқ изи»да фош этилиб, қонун устуворлиги таъминланмоқда.

Касалликни даволагандан кўра, унинг олдини олиш тамойилига амал қилган ҳолда «маҳаллабай», «фуқаробай», «хонадонбай» усулида аҳолининг турмуш тарзини ўрганиш жараёнида эҳтиёжманд, низоли оилалар, ишсиз фуқаролар, ичкиликбозликка ружу қўйган, жиноят содир қилишга мойил бўлган шахслар аниқланиб, улар билан профилактик суҳбатлар олиб бориляпти. Шунингдек, уларни иш билан таъминлаш, имтиёзли банк кредитлари ажратиш орқали тадбиркорликка жалб этиш чоралари кўриляпти.

Жорий йилнинг ўтган даврида туман Ички ишлар бўлими ходимлари томонидан 6 та пора олиш, 3 та гиёҳвандлик, 1 та фоҳишахона ташкил этиш, 2 та диний-экстремистик оқим таъсири остидаги, 1 та тақиқланган экинларни етиштириш билан боғлиқ жиноятлар фош этилди.

– Содир этилган ҳар бир жиноят ўша маҳалланинг ўзида кенг жамоатчилик вакиллари иштирокида муҳокама қилиб бориляпти, – дейди туман ИИБ бошлиғи, подполковник Зафар Турсунов. – Ушбу йиғилишларда жиноятларнинг келиб чиқиш сабаблари, унга имкон берган шароит ва омиллар очиқчасига айтилиб, масъул шахсларнинг, маҳалла оқсоқоллари, ички ишлар органлари фахрийларининг фикр-мулоҳазалари, таклиф ва истаклари тингланиб, келгусидаги вазифалар белгилаб олинмоқда.

Ғузор тумани 1926 йилда ташкил топган. Шимолдан Қамаши ва Чироқчи, шарқдан Деҳқонобод, ғарбдан Қарши ва Нишон туманлари, жанубда 25 км масофада Туркманистон билан чегарадош. Майдони 2,62 минг км кв. Аҳолиси 212 минг кишидан ортиқ. Маркази – Ғузор шаҳри. Туманда ўнлаб ишлаб чиқариш объектлари, жумладан, «Шўртангаз», «Шўртан газ-кимё мажмуаси» синғари йирик саноат корхоналари жойлашган.



– Жорий йилда майда безорилик, жамоат жойларида спиртли ичимлик истеъмол қилиш, паспорт тизими, ободонлаштириш қоидаларини бузиш каби турли ҳуқуқбузарликлар содир этган 1850 нафар шахсга нисбатан маъмурий баённомалар расмийлаштирилди. 22 нафар шахс маъмурий назоратга олинди, белгиланган қонун талабларига риоя этмаган 37 нафар шахс суд қарорлари билан маъмурий қамоқ жазосига ҳукм қилинди. Содир этилаётган кўплаб ҳуқуқбузарликлар ичкиликбозлик оқибатида рўй бераётгани туфайли бундай шахсларни мажбурий даволаш диспансерига жойлаштиришга жиддий эътибор қаратилмоқда, – дейди туман ИИБ ЖХХ ҲПБ бошлиғи, майор Акмал Элмуродов.

«Обод ва хавфсиз маҳалла» тамойили асосида тумандаги 51 та маҳалладаги вазият таҳлил қилиниб, уларнинг 9 таси «қизил», 18 таси «сариқ» ҳамда 34 таси «яшил» тоифаларга ажратилган. «Қизил» ҳудудга киритилган, криминоген вазият оғир бўлган ва жиноят сони ошган маҳаллаларда барқарор муҳитни таъминлаш, жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш мақсадида соҳавий хизматлар билан ҳамкорликдаги тезкор-профилактик тадбирлар давом эттирилмоқда.

Содиқ РАҲИМОВ,
ўз мухбиримиз.
Қашқадарё вилояти.

Mushtariy ilhomi

BOLALIGIM

Oyga boqib, yulduz sanab o‘tirgan dam,
Chalg‘ib dunyo ishlaridan, chekinib g‘am,
Bolalikni xo‘p esladim yo‘nib qalam,
Shirin nola, jajji gul-u lolaligim,
Nahot endi sen qaytmassan, bolaligim?

To‘lib-toshgan xayollardan charchab toldim,
Jo‘shqin umr bekatida bir zum qoldim,
Esga beg‘am bolalikning yodin soldim,
Shirin nola, jajji gul-u lolaligim,
Nahot endi sen qaytmassan, bolaligim?



Onajonim xizmatida turmadim hech,
Dadajonim qo‘lin ushlab yurmadim hech,
Endi ortga qaytay, desam, bo‘libdi kech,
Shrin nola, jajji gul-u lolaligim,
Nahot endi sen qaytmassan, bolaligim?

Bolalikning mevalari shirin ekan,
Bolin bir bor tatimasang qiyin ekan,
Bu olamning tashvishi bir tiyin ekan,
Shirin nola, jajji gul-u lolaligim,
Afsus, endi qaytmas ekan bolaligim.

Dilfuzaxon FAYZIBOYEVA,
JIDU qoshidagi akademik litsey o‘quvchisi.

Хизматларда

ОЗОДАЛИК БОР ЖОЙДА...

«Зарқўрғон» маҳалласи пойтахтимизнинг Чилонзор туманининг энг «қайноқ» нуқталаридан бири десак янглишмаймиз. Чунки маҳалла ҳудудида кўплаб савдо шохобчалари, ташкилот ва идоралар ҳамда тиббиёт муассасалари жой олган. Бундан ташқари, «Чилонзор» метро бекати ҳам шу маҳалла ҳудудида.



Суратда: *(чапдан) майор Дилмурод Шерматов ва капитан Абдурашид Мирзалимов маҳалла фаоллари билан.*

– Аҳоли сони 5 минг нафардан ошади, – дейди маҳаллада жойлашган 316-таянч пункти профилактика катта инспектори, майор Дилмурод Шерматов. – Бундан ташқари, маҳалла ҳудудидан ўтган кўчада жамоат транспорти қатнови ҳамда метро бекати орқали ҳар куни кўплаб фуқаролар келиб-кетиши эвазига ҳуқуқбузарлик ва жиноятчилик бироз кўпроқ. Лекин биз маҳалла фуқаролар йиғини раиси, ҳоким ёрдамчиси, ёшлар етакчиси, профилактика инспекторлари, капитанлар Абдурашид Мирзалимов ҳамда Дилшод Фаритовлар билан ҳамкорликда бор куч-имкониятларимизни содир этилиши мумкин бўлган ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликнинг олдини олишга қаратганмиз.

Айниқса, тунги вақтларда қонунбузилиш ҳолатларининг кўпроқ учрашини инобатга олиб, бу пайтда янада сергакликни ошириб хизмат олиб боришга тўғри келади. Бевосита профилактика инспекторларининг саъй-ҳаракатлари билан айнан тунги вақтда бир нечта жиноят «иссиқ изида» очилди. Шу йилнинг 20 февраль куни кечки пайт маҳалланинг хонадонларидан бирида Тошкент туманидан келиб яшаётган В.Ю. исмли аёлнинг хонаси текширилганида, 301 дона «Зардекс» ва 17 дона «Тропикамид» номли таркибида психотроп модда бўлган препаратлар борлиги аниқланган.

Жиноятларнинг аксарияти айниқса, ўғрилик жиноятлари видеокузатув камералари ёрдамида очилмоқда. Ҳозирда таянч пунктимиздаги компьютерга 30 дан ошиқ камералар интеграция қилинган. Яна 60 та камера уланиш арафасида. Бу бизга ҳудудни бевосита кузатиб туришимизда асқатмоқда.

– Мен мустақиллик тенгдошиман, – дейди капитан Абдурашид Мирзалимов. – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университетини тугатиб, ички ишлар органларидаги илк фаолиятимни шу туманнинг «Ботирма» маҳалласида профилактика инспекторлигидан бошлаганман. Устозларимдан касб сир-асрорларини ўрганиб, тажриба орттирдим. Ҳозирда мазкур маҳаллада ҳам ҳамкасбларим ҳамда маҳалла фаоллари билан ҳамкорликда хизмат олиб бормоқдаман. Мен истиқлол тенгдоши номига муносиб тарзда мустақиллигимизни янада мустаҳкамлаш ва эл-юртимиз тинчлигини сақлашда ўз ҳиссамни қўшаётганимдан фахрланаман.

Маҳалланинг кўчалари, кўп қаватли уйлар атрофи тоза-озодалигини кўриб, баҳри дилимиз очилди, демак аҳоли, фаоллар ҳамда профилактика инспекторлари аҳил, жипс экан деган хулосага келдик. Зеро, озодалик бор жойда ободлик ва қут-барака бўлади.

Сарвар СОБИРОВ,
ўз мухбиримиз.

Эҳтиёт бўлинг: фирибгар!

ҲАРОМДАН ҲАЗАР ҚИЛМАЙДИГАНЛАР ҲАМ БОР

Рамз (воқеа иштирокчиларининг исмлари ўзгартирилди) фирибгарлик жиноятини содир этгани учун ўн марта судланди. Биринчи бор жиноят ишлари бўйича Қизилтепа туман суди унинг фирибгарлик жиноятини кўриб чиққан эди. Ёшлиги туфайли билмай бу ножўя қилмишга қўл урган-дир, дея амнистия актига асосан уни жазодан озод этишди.

Аммо Рамз яхши томонга ўзгариш ўрнига, «ўз касби»нинг бошқа қирраларини кўрсатди. Иккинчи сафар у жиноят жойини ўзгартирди, холос. Қилмиши тезда фош бўлиб, жиноят ишлари бўйича Кармана туман суди томонидан жазога тортилди. Мазкур жинояти учун узил-кесил 11 йилга озодликдан маҳрум этилди. Кейинроқ ўталмай қолган жазо муддати енгилроғига алмаштирилди.

Агар шу тартибда санайдиган бўлсак, ҳайрон бўлиб, бош қашлаб қоламиз. Боиси, юқорида таъкидлаганимиздек, Рамз ҳассасини нақ 10 марта йўқотди. Жиноий қилмиши учун озодликдан маҳрум бўлиш, турли жарималар тўлаш унинг кўзини очмади. Айни пайтда ўн биринчи бор суднинг қора курсисида яна бир қилмиши учун ўтирибди. Қайси қилмиши учун дейсизми? Буни қуйидаги воқеадан билиб оласиз.

У Кармана тумани Кумушкон қўрғонидан тикувчилик цехи ва дўкон очиш учун ҳокимият қарори асосида ер участкаси олди. Бундан хабар топган қариндош-уруғ, қўни-қўшни, таниш-билишлар энди унга инсоф кирибди деб ўйлашди. Улар Рамз Каромов навбатдаги жиноят режасини тузаётганини хаёлларига ҳам келтиришмаганди. Бундан буён кўп қатори яшайди, бошқаларга зиён келтирмайди, деб ишонишганди.

Хуллас, «қаҳрамонимиз» бир неча ҳафта давомида дам олган киши бўлиб, уйидан чиқмади. Мабодо зарурат юзасидан кўчага чиқса ҳам, барчага хушмуомалада бўлиб юрди. Ниҳоят бир куни тўй-ҳашамларда киядиган костюм-шимини кийиб, бўйнига бўйинбоғ тақиб, кўзга кўринган ресторанларнинг бирига овқатланган кирди.

Атрофдагиларнинг эътиборини ўзига қаратиш учун уяли телефонида ер участкасини сотиш хусусида мижозлар билан «суҳбатлашди». Гўёки ўзини чет элга товар олиб келгани кетаётган қилиб кўрсатди. Шунга маблағ зарур бўлганини айтиб, шунинг учун ерни пастроқ нархда сотаётганини бот-бот такрорлади.

Хўрандалар орасидан айрим бойваччалар ҳам унинг ерига харидор бўла бошлашди. Ниҳоят йирикроқ «балиқ» унинг ҳийла қармоғига илинди. Иморат қуриш учун ер сотиб олмоқчи бўлиб юрган Жавоҳир олдиндан 67 миллион сўм «заклат» бериб, жойни банд қилди. У ернинг ҳужжатларини сўраганида, Рамз бу янги жой эканлиги, ҳужжатлари энди расмийлаштирилаётгани, иморат қурилиши бошлангандан сўнг ҳужжатлар тўлиқ қўлида бўлишини айтиб, Жавоҳирни ишонтирди.

Шундан сўнг орадан бир неча ҳафта ўтди. Рамз аввалига Жавоҳир билан учрашишидан ўзини олиб қочиб юрди. Сўнг Жавоҳирнинг қўнғироқларига жавоб бермай қўйди. Ана шундан кейин тадбиркор алданганини ҳис этиб, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органига мурожаат этди. Мазкур ҳолат юзасидан жиноят иши қўзғатилиб, дастлабки тергов ҳаракатлари якунланиб, иш судга оширилди.

Суд жараёнида Рамз айбига иқрор бўлди. У судга қадар Жавоҳирга пулларининг бир қисмини қайтаргани инобатга олиниб, Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 168-моддаси 3-қисми «в» банди билан 5 йилга озодликдан маҳрум этилди.

Шу ўринда бир мулоҳаза. Бу дунёда Рамзга ўхшаб ҳаром луқмадан, ўзгаларни чув тушириб, пулини, молини ўзлаштиришдан ҳазар қилмайдиган кимсалар ҳам бор. Маслаҳатимиз, уларнинг алдовига учмаслик, тузоғига тушмаслик учун ҳар бир ишни қонуний ҳал этишга одатланинг. Доимо ҳуқуқий билимингизни, савиянгизни ошириб боринг. Фирибгарларнинг ҳийла-найрангидан огоҳ бўлинг!

Меҳриддин КАМОЛОВ,
Жиноят ишлари бўйича Навоий шаҳар судининг судьяси.
Навоий вилояти.

ЖЕРТВЫ РЕПРЕССИЙ: ЖИЗНИ, ОТДАННЫЕ ЗА НЕЗАВИСИМОСТЬ



Мурод ЗИКРУЛЛАЕВ, заместитель директора по научной работе Государственного музея Памяти жертв репрессий при Кабинете Министров Республики Узбекистан.

С обретением Узбекистаном независимости в духовной жизни нашего народа начался качественно новый период – период возрождения исторической памяти.

Установленный в начале XX века тоталитарный строй повлек за собой огромные потери и страдания. Тысячи самоотверженных сынов Родины были репрессированы как «враги народа», «контрреволюционеры», «националисты», «кулаки», попали в жернова массовых арестов, выселений и расстрелов.

В годы независимости началась масштабная работа по восстановлению исторической правды. Значимым событием стало создание в 1999 году благотворительного фонда «Шаҳидлар хотираси». В Юнусабадском районе Ташкента на берегу Бозсу был возведен одноименный мемориальный комплекс, открытие которого состоялось 12 мая 2000 года. В 2001 году установлен День памяти жертв репрессий – 31 августа. Еще через год начал функционировать Государственный музей Памяти жертв репрессий.

В настоящее время фонд музея составляет более 17 тысяч экспонатов. Здесь проделана значительная работа по увековечению имен соотечественников – жертв репрессий, укреплению у молодежи чувства преданности идеям независимости, патриотизма.

Только за два последних года музей посетили около 100 тысяч человек, организовано порядка двух тысяч экскурсий и лекториев.

Особое место в деятельности музея занимает научно-исследовательская и издательская деятельность. Издано 55 монографий, 35 сборников научных статей, 5 учебных пособий, опубликовано более 850 материалов в журналах и газетах.

Роль и значение музея высоко оцениваются руководством страны. В 2017 году Президент Шавкат Мирзиёев инициировал организацию его филиалов, отметив, что они должны стать центрами духовного притяжения, очагами просвещения. В целях реализации данной инициативы расширена сфера деятельности музея. Он был передан в ведение Кабинета Министров, в структуре 13 высших образовательных учреждений начали функционировать музеи Памяти жертв репрессий. В городе Карши в древней мечети Одина был вновь создан областной музей, экспонаты которого рассказывают о колониальной политике, проводившейся в Туркестанском крае.

Распоряжение Президента страны от 8 октября 2020 года «О дополнительных мерах по более глубокому изучению наследия и увековечению памяти жертв репрессий» подняло на качественно новый уровень работу по восстановлению исторической справедливости. Согласно документу в разрезе Республики Каракалпакстан, областей и города Ташкента подготовлено 14 книг Памяти жертв репрессий, обновлена экспозиция музеев на основе концепции «Новый Узбекистан: основы третьего Ренессанса». Только в течение 2022 года изданы 10-й том книги «Тарихнинг номаълум саҳифалари. Илмий мақолалар. Ҳужжатлар ва материаллар. Хотиралар», сборник «Ўттиз еттинчи йил турналари. 1937-1938-йиллардаги «Катта қирғин» қурбонларига бағишланган очерк ва мақолалар», путеводитель «Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейи» (на узбекском, русском, английском языках), монография «Жадидчилик феномени», книги «Миллатимиз фидоийлари», «Чироқ кўтарган аёл», «Ғози Юнус. Кўз очинг Турон эли» и др.

Значительная работа ведется по реабилитации репрессированных в период тоталитарного строя. В результате ходатайств, поданных в Верховный суд и Генеральную прокуратуру, в период с августа 2021 по апрель 2023 года реабилитирован 601 репрессированный соотечественник.

В целях реализации благородных задач проводятся научно-практические конференции, духовно-просветительские мероприятия. Так, 7 апреля 2022 года совместно с Азербайджанским культурным центром им. Гейдара Алиева была организована международная конференция на тему «Трагедия народов Азербайджана и Узбекистана: одна история, одна судьба»; 18 мая 2022 года в сотрудничестве с Республиканским центром духовности и просветительства – выставка «Они обучались в Германии», посвященная 100-летию отправки туркестанских студентов на учебу в Германию.

Говоря о значении джадидизма – движения за обновление и свободу, многие представители которого были репрессированы, глава государства подчеркнул: «Мы должны еще более глубоко изучать нашу древнюю историю, особенно деятельность джадидов... Их мужественная и самоотверженная борьба во имя великих целей – достойный пример для всех нас, прежде всего для молодежи, в построении Нового Узбекистана».

6-7 марта 2023 года в Ташкенте Государственным музеем Памяти жертв репрессий, Организацией тюркских государств, Республиканским центром духовности и просветительства, во взаимодействии с другими организациями была проведена международная конференция «Просветительская деятельность джадидов: идеи, цели, задачи и вклад в развитие Туркестана». Проведение мероприятия в рамках председательствования Узбекистана в Организации тюркских государств еще более повысило его авторитет и представительность.



В приветственном слове участникам конференции Президент Шавкат Мирзиёев отметил: «В нашем регионе, который стал колыбелью двух великих Ренессансов в истории Востока, именно джадиды могли бы осуществить третий Ренессанс. К сожалению, тоталитарный режим не позволил полностью воплотить в жизнь их дальновидные идеи и устремления. Сегодня мы строим в нашей стране свободное гражданское общество, правовое демократическое государство и опираемся в этом на гуманистические принципы наших предков-джадидов, черпаем в их наследии духовную силу и энергию».

Народ, не помнящий своей истории, не способный постичь суть и значение важных жизненных истин, не имеет будущего.

Для нашего народа почитание непреклонной воли и стойкости предков, пожертвовавших жизнью во имя свободы и независимости Родины, – священно.



Kinotaqdim

«QURBON» QILINAYOTGAN MASHINALAR, 19 SOATLIK ISH

yoxud «Uch qahramon» filmiga oid ba’zi haqiqatlar



Bilamizki, yurt osoyishtaligi yo‘lida jon fido qilgan uch nafar ichki ishlar organlari xodimlari — qidiruv bo‘yicha inspektor, katta leytenant Matkarim Matchonov, YPX inspektorlari Olimjon Asqarov hamda Musa Gashimov sharafiga Yunusobod tumanidagi «Chimkent» postining nomi «Uch qahramon» deb o‘zgartirilgan. Fojia 1988-yilning 16-iyun kuni sodir bo‘lgandi.

Shu kunlarda O‘zbekiston kinematografiya agentligi va Ichki ishlar vazirligi hamkorligida «Uch qahramon» nomli o‘tkir syujetli film tasvirga olinmoqda. Xo‘sh, «Uch qahramon»da biz yuqorida tilga olgan qonli voqealar ochib beriladimi yoki butunlay yangi talqinga guvoh bo‘lamizmi? Shu va boshqa ko‘plab savollarga javob olish maqsadida ushbu keng qamrovli katta loyihaga mas’ullardan biri sifatida biriktirilgan IIV Jamoat xavfsizligi departamenti axborot xizmati rahbari, podpolkovnik Muzifa Sultonova bilan mushtariylar uchun eksklyuziv suhbat tashkillashtirdik.

— Muzifa opa, avvalambor g‘oya va ssenariy mualliflari, tashabbuskorlar hamda sizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlayotganlar borasida to‘xtalib o‘tsangiz...

— Aslida ijtimoiy roliklar bo‘ladimi, jonli efirlardagi chiqishlarmi, qisqa lavhalarmi tizim xodimlarining faoliyatini to‘g‘ri ko‘rsatib bera olish lozim. Ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarimizda nafaqat ijobiy o‘zgarishlarni, balki salbiy jihatlarni ham yashirmasdan e’lon qilib boryapmiz. Bu ochiqlik talabi. Har bitta targ‘ibot shunchaki bo‘lmasligi kerak. Ya’ni, bugungi odamlar ko‘zi bilan ko‘rganiga ko‘proq ishonmoqda. Video shaklida, ta’sirli, tuzilishi murakkab bo‘lgan ijod mahsullari auditoriyaning yuragiga tezroq yetib boradi.

Endi savolingizga kelsak, g‘oyalarimizni qo‘llab-quvvatlab, ruxsat berilganligi quvonarli voqea bo‘ldi. Qo‘rqmasdan aytamanki, bu tashabbus Ichki ishlar vazirligi nomi bilan bevosita bog‘liq. Bir so‘z bilan aytganda, film ishlash fikri ko‘pchilikning kelishuvi asosida yuzaga keldi. Birgina filmga tanlangan nom shu qadar mashhurligidan ko‘pchilikda qiziqish uyg‘otmoqda.

— Ko‘pgina real voqealarga asoslangan ijod mahsullarini ko‘rganmiz. «Uch qahramon» aynan qaysi jihatlari bilan boshqalaridan farq qiladi? Nega aynan bu nom tanlandi?

— Filmimizda yagona bosh qahramon yo‘q. Qahramonlarning soni uchta. Voqealar aynan ularning atrofida sodir bo‘ladi. Film nomi ham shunga monand deyishimiz mumkin. Boshqalaridan ajralib turadigan jihatlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, biz yaratayotgan mahsulot bugungi zamonga moslangan. Syujetlar ketma-ketligi murakkab. Shuning hisobiga siz voqealar rivojini oldindan taxmin qila olmaysiz. Biz bu bilan hozirgi davrdagi ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatini ochib berishga harakat qilamiz. Har bir jarayon real hayotdan olingan. Voqealar, faktlarni bittalab yig‘ib, o‘rgandik. Bunga bir yarim yilcha vaqt sarflandi. Albatta, mehnat og‘ir, mas’uliyat yuqori. Hammasini oldindan inobatga olganmiz. Sahnalashtirish ishlari boshlangunicha, qancha taqdimotlar qilib berdik. Ko‘pchilikka ko‘rsatdik, zarur maslahatlarni ham oldik. Odatda kino sanoatida har bir voqea badiiylashtiriladi. Lekin badiiylashtirishni oshirib yubormaslik zarur, bu borada talabimiz qattiqroq bo‘lmoqda.

— Ijrochi sifatida taniqli aktyorlardan kimlarni ko‘rishimiz mumkin?

— Mashhurlar yetarlicha. Ichki ishlar organlari sohasida faoliyat yuritadigan tajribali aktyor Uchqun Tillayev, ijodini tobora yuksaltirib borayotgan Shohrux Hamdamovlarni aytishimiz mumkin. Hattoki, chet eldan taklif etilganlar ham bor.

— Tasvirga olish jarayonlari sutkada necha soat davom etyapti. Voqealar rivoji Toshkentdan boshqa hududlarga ham ko‘chmoqdami?

— Kuniga 18-19 soatdan kam emas. Yarim tun deymizmi, kunduzimi ijodiy jamoa zarracha tinim bilayotgani yo‘q. Film suratga olinayotgan payti ba’zida ayrim hududlar yopilmoqda. Albatta, aholiga qiyinchilik tug‘dirmasligi inobatga olingan holda. Biz oldindan ogohlantirishlar beryapmiz. Hozircha muammo kelib chiqmayapti.

O‘zimizning vazirlikdan tashqari Favqulodda vaziyatlar, Sog‘liqni saqlash vazirliklari shuningdek, tasvirga olish jarayonlari ketayotgan hududlardagi mahalliy hokimliklar mutasaddilari ko‘mak berishyapti. Kameralar xotirasiga muhrlash ishlari hozircha Toshkent shahrining o‘zi hamda Toshkent viloyatining ayrim hududlarini qamrab olmoqda...

— Rejissyorlar, operatorlar, umuman, loyiha ustida mehnat qilayotganlarning soni necha nafar? Ishlar qachon nihoyasiga yetadi? «Uch qahramon»ning davomiyligi qancha bo‘lishi kutilyapti? Premyera kuni aniqmi?..

— Loyiha ustida mehnat qilayotganlar 70 kishi atrofida. Ularga barcha zarur sharoitlarni yaratib berganmiz. Film bir qismdan iborat bo‘lib, davomiyligi ikki soatdan oshadi. Serial qilsakmikan, degan



fikrlar ham bo‘lgan. Ammo filmga tomoshabinlarning munosabatini bilsak va ularga ijodimiz ma’qul kelsa, yangi g‘oyalarga boy kontentlarni yana davom ettiramiz, degan qarorga keldik. Ta’kidlab o‘tmoqchimanki, sentabr oyida ham syomkalar bor. Premyera kuz oylaridan birida bo‘lib o‘tadi.

— Bizga ma’lum bo‘lishicha, rejissyor tanlash oson bo‘lmagan. Bu vazifa kimning zimmasiga yuklandi?

— Yosh rejissyor Shohrux Rasulovga ishonch bildirdik. U ssenariyga ham bosh-qosh bo‘lyapti. Biz voqeliklarni ketma-ketlikda taqdim qilganmiz. Ushbu soha vakillari juda o‘tkir fikrlashadi. Baribir, ularning qarashlari oddiy odamlarnikidan farq qiladi. Ishining ustasi ekanligi qaynoq jarayonlarda yaqqol ko‘rinib turibdi. U hozir faqat film ichida yashayapti. To‘g‘ri, Ichki ishlar organlari sohasida faoliyat yuritmagan, lekin katta-katta seriallar, hatto tarixiy, hujjatli filmlar ishlanishida bevosita ishtirok etgan.

— «Avtobusning ko‘prikdan qulashi», «Patrul-post xizmati mashinalarining majaqlanishi» kabi sahnalar ijtimoiy tarmoqlarni qalqitdi. Hatto buni haqiqiy holat, deb o‘ylaganlar ham topildi. Bunday epizodlar yana ko‘p bo‘lsa kerak?! Odatda o‘zbek kinoixlosmandlari «kamchiqim» seriallar, telenovellalarga o‘rganib qolishgan. Mas’ullar roziligini olishda muammo bo‘lmadimi?

— Epizodlar kam emas. Xilma-xil bo‘ladi. Ruxsat olish borasida aytadigan bo‘lsam, dastlab konsepsiya ishlab chiqib, uni taqdim qildik. Voqealar rivojini tasvirlab berdik. Ishonch bilan ma’lum qilamanki, avtobusning qulashi, boshqa YTHlar tasvirga olish jarayonida dabdurustdan tug‘ilib qolgani yo‘q. Voqealar real hayotda sodir bo‘lgan. Buni omma bilishi kerakligi bois yuqoridagi manzaralarni ancha avval g‘oyamizga qo‘shganmiz. Bor narsani boricha ko‘rsatishga harakat qildik. Mas’ullarning roziligini olganmiz. Oldindan aytay, filmda faqat shu ikki holat bilan cheklanilmagan.

— Shukrki, ko‘ngilsiz holatlar hali sodir bo‘lmadi. Bo‘lmasin ham. Barcha xavfsizlik choralarini ko‘rganmiz. FVVdan olov o‘tmaydigan maxsus kiyimlargacha olib kelganmiz. «Qurbon bo‘lgan» mashinalar soni hozircha 10 taga yetdi. Qaysi avtoulovdan qachon va qayerda voz kechilishi avvaldan rejalashtirilyapti. Xavotir mutlaqo o‘rinsiz. Hech kimga zarar yetmaydi. Xavfsizlik borasida muammo yo‘q. Avtobus suvga qulaganda ekologiyadan chiqishdi, telekanallardan kelishdi, blogerlar yozishdi. Ancha shov-shuv bo‘ldi. Biroq u avtobus haqiqiy bo‘lgani bilan «korobka» edi. Uni qulatishdan oldin suvni ifloslantirmaslik uchun yoqilg‘ilarigacha olib qo‘ygandik...

Abror POYONOV suhbatlashdi.

Қарор ва ижро

ҲАРБИЙЛАР ЧЕМПИОНЛАРГА ҚАРШИ

Ўзбекистон 2026 йилда 46-Бутунжаҳон шахмат олимпиадасига мезбонлик қилади. Шу муносабат билан давлатимиз раҳбарининг «2026 йил Ўзбекистонда бўлиб ўтадиган 46-Бутунжаҳон шахмат олимпиадасига комплекс тайёргарлик кўриш ҳамда шахматни оммавий ҳаракатга айлантиришга оид чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори қабул қилинди. Айни пайтда мамлакатимизда илк бор ўтказиладиган нуфузли мусобақани юқори савияда ташкил этиш, янги авлод шахматчиларини тайёрлаш ва халқаро майдонга олиб чиқиш, шахматни янада оммалаштириш мақсадида кенг кўламли ишлар олиб борилмоқда.



Қарор ижроси юзасидан ИИВ Халқаро аэропортларда хавфсизликни таъминлаш қўшинлари қўмондонлигида ташкил этилган тадбир ҳам шахсий таркиб ўртасида шахматни оммалаштиришга қаратилди.

Тадбирга ўсмирлар ва ёшлар ўртасида мамлакат, қитъа ва жаҳон миқёсидаги турнирларда ғалаба қозонган чемпионлар таклиф этилди. Хусусан, халқаро гроссмейстер, 8 карра Ўзбекистон, 5 карра Осиё чемпиони, жаҳон чемпионати совриндори, «Мард ўғлон» давлат мукофоти соҳиби Абдималик Абдисалимов, 11 карра Ўзбекистон, 5 карра Осиё чемпиони, Ўсмирлар олимпиадасининг бронза медали, жаҳон чемпионатининг кумуш медали соҳиби Ортиқ Ниғматов, шунингдек, халқаро тоифадаги спорт устаси, ўз ёш рейтенги бўйича қитъада биринчи, дунёда иккинчи ўринни эгаллаб келаётган 13 ёшли Ҳумоюн Бекмуродов ҳарбий хизматчилар билан учрашди. Шахматга кириб келиши, ютуқлари, нуфузли мусобақалардаги иштироки юзасидан берилган саволларга жавоб қайтаришди.




Шундан сўнг очиқ майдонда ҳар бир чемпион бирваракайига 5–6 нафар рақиб билан дона сурди. Шахматга қизиққан ҳарбий хизматчилар ва уларнинг фарзандлари учун мазкур беллашув ўзига хос мастер класс бўлди, дейиш мумкин.

– Мен учала чемпион билан ҳам икки-уч партиядан шахмат ўйнадим, – дейди взвод командирининг моддий таъминот бўйича ёрдамчиси, 1-даражали сержант Камолиддин Қўлдошев. – Катта мусобақаларда дона сурган гроссмейстерларга қарши ўйнашнинг ўзи бўлмади. Барчасида ютқазган бўлсам-да, иштирокимдан қониқиш ҳосил қилдим. Бундай учрашувни, мусобақани ташкил этгани учун тадбир ташкилотчиларидан миннатдорман.

Ўз мухбиримиз.



Бугуннинг мавзуси



КИБЕРЖИНОЯТЛАРГА ҚАРШИ ҚАНДАЙ КУРАШИШ МУМКИН?

Тарғибот тадбирлари давлатимиз раҳбарининг 2022 йил 3 февралдаги «Интернет тармоғида содир этилаётган ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори ва бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар асосида олиб борилмоқда. Бу йўналишдаги ишлар алоҳида ёндашув асосида аҳолининг қуйидаги 4 қатлами ажратиб олинган:

– таълим муассасалари ёшлари ўртасида;

– маҳалла фуқаролари ўртасида;

– корхона ва ташкилотларнинг ишчи-хизматчилари ўртасида;

– ОАВ вакиллари ва блогерлар ўртасида.

Ҳозирги вақтга келиб, комплекс тарғибот-ташвиқот тадбирлари республикамизнинг Қорақалпоғистон Республикаси ва Тошкент шаҳрида ҳамда Андижон, Наманган, Фарғона, Сирдарё, Самарқанд, Хоразм, Тошкент вилоятларида ўтказилиб, бошқа ҳудудларда ҳам давом этмоқда.

Ҳудудларда барча шаҳар-туман аҳолиси ўртасида кибертаҳдидлардан огоҳлантириш бўйича тушунтириш ишлари олиб борилмоқда. Кибержиноятлардан жабрланган фуқароларнинг яшаш ҳудуди ҳамда касбий фаолияти (тиббиёт, ўқитувчи, ўқувчи-талабалар, кекса фуқаролар) таҳлили натижалари инобатга олиниб, тарғибот тадбирлари турлари шакллантирилган ва ўтказиш жойлари белгиланган.

Кибертаҳдидлардан огоҳлантириш комплекс тарғибот тадбирлари ҳафталик «Cyber-Week» номи остида ўтказилиб, аҳолининг барча қатламини қамраб олиш мақсадида давлат ва нодавлат ташкилотлари, таълим муассасалари ва ўзини ўзи бошқариш органларидан масъул ходимлар жалб қилинган.

Тадбирлар давомида инновацион тарғибот усулларидан фойдаланган ҳолда, ногиронлиги бўлган, ижтимоий ҳимояга муҳтож шахсларни, корхона ва муассасаларнинг ишчи-хизматчиларини, ёшларни кўпроқ қамраб олиш белгиланган.

«Cyber-Week» комплекс тарғибот тадбирлари «маҳаллабай» ва «хонадонбай» тамойиллари асосида таълим ва тиббиёт муассасалари, банклар, бозорлар ва савдо комплексларида, масжидлар ҳамда маҳаллаларда кибержиноятлар, улардан ҳимояланиш усуллари борасида давра суҳбатлари, маҳорат дарслари олиб борилмоқда. Тадбирлар самарадорлигини ошириш учун аҳолининг турли қатлами ўртасида 7 турдаги танловлар ташкил этилмоқда. Танловлар имконияти чекланган фуқаролар ўртасида «Банк картаси кодини ҳеч кимга бермайман», тиббиёт ходимлари ўртасида «Интернет тармоғидан хавфсиз фойдаланаман», мактаб ўқувчилари ўртасида «Энг фаол мактаб», мактабгача таълим муассасалари ўртасида «Энг фаол мактабгача таълим муассасаси», блогерлар ўртасида «Энг яхши контент», олий таълим муассасалари талабаларига мўлжалланган «Инновацион ёндашув», профилактика инспекторлари ўртасида «Энг яхши маҳалла» номи билан ўтказилмоқда. Ҳозирги кунга қадар ўтказилган танловлар давомида 250 нафардан ортиқ фуқаролар ноутбук, планшет, смартфон ва телевизорлар билан тақдирланди.

Интернет тармоғи фойдаланувчилари ва аҳолини янги турдаги кибертаҳдидлардан огоҳлантириб бориш мақсадида телеграм мессенжери ва ютуб видеохостингида «Cyber–102» номли расмий саҳифалар очиб, доимий равишда хабардор қилиб борилмоқда.

ИИВ Тезкор-қидирув департаменти Киберхавфсизлик маркази.

Ветераны – наша гордость

НА ПЕРЕДОВОЙ БОРЬБЫ С ПРЕСТУПНОСТЬЮ



Ганижон Абдуллаев родился в семье сотрудников органов внутренних дел. Отец, Паттаржон ака, был в звании старшины, служил командиром взвода по сопровождению грузовых и пассажирских поездов в ЛОВД на станции «Андижан». Мама, Евдокия, являлась начальником паспортного стола во втором отделении Андижанского ГОВД. Она имела звание младшего лейтенанта.

Вопросов с выбором профессии у Ганижона не было. К тому же перед глазами был еще один замечательный пример: старший брат, Владислав Гуртовенко, служил оперуполномоченным в УВД Андижанской области. Позже он работал на руководящих должностях в УВД Андижанской, Навоийской областей, Центральном аппарате МВД Узбекистана.

Ганижон окончил Ташкентскую высшую школу МВД, работал оперуполномоченным, старшим оперуполномоченным, начальником отделения отдела уголовного розыска УВД Андижанской области.

– Для меня примером всегда были родители и старший брат, – говорит Ганижон Паттаржанович. – Отец прошел войну, а потом боролся с бандитизмом. Ведь послевоенная железная дорога привлекала уголовные элементы. Мама была строгих правил не только на службе, но и дома. Родители воспитали пятерых сыновей и двух дочерей. Семейную традицию продолжили и младшие братья – Солижон и Олимжон. Солижон работал в дежурной части в ЛОВД на станции «Андижан», Олимжон – в организационном отделе УВД, начальником специальной части. Отец требовал, чтобы мы служили честно, верно исполняли профессиональный долг, были примером для других.

Ганижон Абдуллаев впоследствии служил в Главном управлении уголовного розыска МВД Республики Узбекистан. На заслуженный отдых вышел в 1997 году с должности начальника отдела главка в звании полковника.

По его стопам пошел сын Артём. Он также служит в уголовном розыске, майор.

Полковник в отставке Ганижон Абдуллаев частый гость в подразделениях УВД Андижанской области. Встречается с молодыми сотрудниками, рассказывает о непростых годах работы, делится опытом.

Нигде не заложат такое ответственное отношение к делу, как в семье с крепкими традициями. Важно, когда опыт и знания передаются по наследству от отца к сыну, от деда к внуку. Династии олицетворяют преемственность поколений, уважительное отношение к выбранной профессии. В семьях, где в органах внутренних дел служат несколько поколений, такие понятия, как патриотизм, честь, являются не просто словами, а нравственными скрепами.


Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.
Андижанская область.

В центре внимания – подросток!

«ЧТОБЫ ДЕТИ БЫЛИ СЧАСТЛИВЫ»

Как хорошо, когда есть мама, чувствовать ее заботу...

Судьба Саиды (имя изменено) сложилась так, что она не ощутила тепла материнских объятий, не испытала счастья поговорить по душам с самым родным человеком. 14-летняя девочка – сирота, она живет в «Детской деревне – SOS».



Саида всегда с грустью провожала взглядом ребят, которые шли за руку с мамой или папой. О ней заботились воспитатели, у нее были друзья, однако девочке было тоскливо без родительской любви и внимания. Может это внутреннее одиночество и подтолкнуло ее на совершение глупых поступков, которые могли обернуться неисправимыми последствиями. Саида стала пропускать занятия в школе, грубила учителям, целыми днями бродила с сомнительной компанией. Инспектор-психолог по вопросам несовершеннолетних ОПП УКД ОВД Мирзо-Улугбекского района столицы лейтенант Фотима Мавжудова помогла девочке изменить свое поведение. Она не просто читала ей нотации о правильном образе жизни, а беседовала как старшая сестра, приезжала к ней каждый день, давала советы. Сейчас Саида иначе смотрит на то, что с ней происходило недавно...

– Если бы мама была жива, она гордилась бы мной, – говорит Саида. –Планирую после окончания школы выучиться на реанимационную медсестру, чтобы спасать людские жизни. Фотима Абдурашитовна для меня – образец доброты и милосердия. Таким должен быть каждый.

Наставником в службе для Ф. Мавжудовой стал подполковник Улугбек Назаров. Он учил ее не только грамотно вести документацию, но и правильной работе с несовершеннолетними, быть терпеливой в весьма непростом деле – работе с трудными подростками.

Лейтенант Ф. Мавжудова в постоянном контакте с подучетными ребятами, систематически посещает их семьи. За ней закреплены четыре махалли и три общеобразовательные школы, где она тесно взаимодействует с активистами МСГ и педагогами.

В редкое свободное время Фотима занимается созданием красивых цветов из обычного мыла, а из шоколада мастерит фигурки растений и птиц. Она даже привлекла нескольких девочек к этому увлекательному занятию.

Ее сыновья, 12-летний Азизбек и 9-летний Амирбек, занимаются изучением английского языка, посещают спортивные секции.

На вопрос, чего она желает больше всего, Фотима Абдурашитовна ответила просто: «Чтобы дети были счастливы».

Мардона
БАХТИЯРОВА.

«INTIZOM OYLIGI» DOIRASIDA

INTIZOM XIZMATGA MUNOSABATNI BELGILAYDI

Ichki ishlar vazirining farmoyishi asosida joriy yilning 25-iyulidan 25-avgustiga qadar mamlakatimiz ichki ishlar organlari tizimida «Intizom oyligi» tadbirlari davom etmoqda. Mazkur oylik doirasida soha xodimlari ishtirokida o‘tayotgan tadbirlarda xizmat intizomi va qonunchilikka rioya etish, korruptsiya, poraxo‘rlik va tamagirlik holatlariga murosasiz bo‘lish, xizmat faoliyatida fuqarolar bilan xushmuomala bo‘lish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Sirdaryo viloyati



Keyingi yillarda ichki ishlar organlari xodimlarining nufuzi, ularga bo‘lgan munosabat, fuqarolarning ishonchi ijobiy tomonga o‘zgarib borayotir. Xodimlarning elga aralashuvi ko‘paydi. Ichki ishlar organlari xodimlari va xalq orasidagi devor yo‘qoldi. Bunda xodimlar bilan olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning o‘rni katta bo‘lmoqda. Guliston tumani IIBda tashkil etilgan «Uch avlod uchrashuvi» va ko‘hna Xovos yodgorligiga sayohat kabi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bunga misol bo‘la oladi.

Xorazm viloyati



Viloyat IIBda bo‘lib o‘tgan tadbirda o‘zlarining boy hayotiy tajribalarini yosh xodimlarga o‘rgatishdagi faol ishtiroki uchun bir guruh faxriylarga boshqarma rahbariyati tomonidan minnatdorlik bildirildi va esdalik sovg‘alar topshirildi.

Toshkent shahri

Toshkent shahar IIBB JTSB bo‘linmalari Kinologiya xizmati kinologiya faoliyatini tashkil etish bo‘limida xodimlar o‘rtasida korruptsiyaviy holatlarning oldini olish, xodimlarni Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish ruhida tarbiyalash maqsadida «Temir intizom»ni yo‘lga qo‘yish va qonuniylikni ta’minlash, qonunchilikka rioya etishni mustahkamlash» mavzusida suhbat tashkil etildi.



Qashqadaryo viloyati



Qashqadaryo viloyatida joylashgan 3-sonli jazoni ijro etish koloniyasida xodimlarning oila a’zolari ishtirokida yig‘ilish o‘tkazildi. Unda o‘z xizmat vazifasini vijdonan ado etayotgan bir guruh xodimlarning ota-onalariga tashakkurnoma va qimmatbaho esdalik sovg‘alari topshirildi.



ҲАЙДОВЧИ МАСЪУЛИЯТНИ УНУТМАСЛИГИ ЛОЗИМ

Хоразм вилояти ИИБ ЖХХ ЙҲХБ ва унинг ҳудудий бўлимлари ходимлари ҳаракат хавфсизлигини таъминлаш, йўл-транспорт ҳодисаларининг олдини олишда тегишли ташкилотлар вакиллари билан ҳамкорликда бир қатор тадбирларни амалга оширишмоқда.

Жорий йилнинг 7 ойи мобайнида йўл ҳаракати билан боғлиқ 138079 та қоидабузарлик аниқланган. Энг ёмони, 8403 нафар фуқаро ҳайдовчилик гувоҳномасига эга бўлмасдан туриб автотранспорт воситасини бошқаришга жазм этган.

Ҳайдовчиларнинг транспорт воситаларини спиртли ичимлик истеъмол қилган ҳолда бошқараётгани, тезликни меъёр талабларидан ошириши кўпинча йўл-транспорт ҳодисаларининг келиб чиқишига сабаб бўлмоқда. Бундай нохуш ҳолатларнинг олдини олиш мақсадида маҳалла, корхона ва ташкилотларда, муассасаларда кўплаб тарғибот тадбирлари, учрашувлар, давра суҳбатлари ўтказиляпти. Шунга қарамай, баъзи ҳайдовчилар турли автоҳалокатларни содир этишмоқда.



Суратда: *Вилоят ИИБ ЖХХ ЙҲХБ 5-сафарбарлик гуруҳи ЙПХ инспектори, сафдор Бобур Отабоев ҳамда вилоят ИИБ ЖХХ ЖТСБ ППХ батальони сафдор ходими, кичик сержант Сарвар Отабоевлар хизмат пайтида.*

Жорий йилнинг 30 апрель куни тунда Урганч шаҳри «Оби ҳаёт» маҳалласи ҳудудида «Spark» русумли автомашина иштирокида йўл-транспорт ҳодисаси рўй берди. Ҳайдовчи машинани катта тезликда бошқариб, йўлдан чиқиб кетган ва дарахтга бориб урилган. Натижада автоулов салонида бўлган йўловчи олган тан жароҳатидан ҳодиса жойида дунёдан кўз юмган.

– Йўл, ҳайдовчи ва пиёда. Бу тушунчалар бир бири билан чамбарчас боғлиқ, – дейди вилоят ИИБ ЖХХ ЙҲХБ катта инспектори, майор Мансур Бердиев. – Йўлларнинг талаб даражасида таъмирлангани, ҳайдовчиларнинг қоидаларга қатъий риоя этиши ва пиёдаларнинг белгиланган жойлардан ўтиши ҳаракат хавфсизлигини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга. Шу боис тарғибот тадбирларида ҳаракат иштирокчиларининг ўзаро муносабатини яхшилаш, маданиятини юксалтиришга алоҳида эътибор қаратяпмиз.

Болалар ва пиёдалар иштирокидаги йўл-транспорт ҳодисаларининг барвақт олдини олиш мақсадида «Ёш автоинспектор», «Ўқувчи пиёда» макетлари тайёрланиб, вилоят ҳудудидаги мактаб ва мактабгача таълим муассасалари, болалар оромгоҳлари ҳамда аҳоли гавжум масканлар олдидаги пиёдалар ўтиш жойларига ўрнатилган. Шунингдек, болаларнинг ёзги дам олиш оромгоҳларида «Йўл ҳаракати интизоми болаликдан бошланади» шиори остида кўплаб тадбирлар ўтказиляпти.

Худойберган ЖАББОРОВ,
ўз мухбиримиз.
Хоразм вилояти.

Бир жиноят тафсилоти

ЁҚУТ КЎЗЛИ БИЛАКУЗУК СИРИ

Терговчининг столида ажабтовур билакузук турарди. Кўринишидан қадимий. Зангор, қизил тошлар ўрнатилганидан қимматбаҳо эканини билиш мумкин. У йўқолмаганида қотиллик ҳам содир бўлмасди.



2023 йил 14 июлда ижтимоий тармоқларда аёл кишининг йўқолгани тўғрисида эълон тарқалди. «Замира Мўминова (исм-шарифлар ўзгартирилди) — 1986 йилда Гулистон шаҳрида туғилган. Миллати ўзбек. Бўйи 168 см. У 11 июль куни уйидан чиқиб кетаётганида устида сариқ рангли кўйлаги, кўк рангли аёллар сумкаси бўлган» дейилади хабарда. Аёлни топиш учун каттагина пул мукофоти ҳам эълон қилинганди.

Қидирув ишлари бир лаҳза ҳам тўхтамади. Гулистон шаҳар ИИБ ЖҚБ ходимлари аёлга алоқадор ҳар бир шахсни ўрганар, кунига ўнлаб одамлар билан суҳбатлашиларди. Аниқланишича, Замира Гулистон шаҳридаги эски бозор ҳудудида тилла тақинчоқлар савдоси билан шуғулланган. Тилла буюмларни фарқлаш бўйича ҳеч ким унга тенг келолмаган. Шу боис бозори чаққон бўлган.

Унинг йўқолиши ўта сирли эди. Ўша куни эрта саҳардан ишга кетяпман, дея уйидан чиққан. Лекин уни бозор ҳудудида ҳеч ким кўрмаган. Ҳамкасблари ҳам уни кўп излашган. Суриштирув пайтида Замиранинг кўпчиликда олди-бердиси бўлганини, ундан бир қанча шахслар қарз бўлиб қолишгани аниқланди.

Орадан бир ҳафта ўтди ҳамки, аёл топилмади. Кутилмаганда Гулистон шаҳридаги тилла бозор, деб аталадиган жой яқинидаги ариқдан ўтказилган қувурдан қўланса ҳид таралаётгани тўғрисида маълумот тушди. Ободонлаштириш ходимлари ариқни тозалаш учун етиб келишди. Лекин улар қувурдан чиққан бўлакланган жасадни кўриб, ҳайратда қолишди. Воқеа жойига ички ишлар органлари ходимлари, эксперт-криминалистлар етиб келишди. Жасаддаги белгилар пухталик билан ўрганилди. ДНК таҳлили учун намуна олинди. Гувоҳлар жасад Замирага тегишли эканини тўлиқ тасдиқлашди.

ЖҚБ ходимларининг иши янада қизғин тус олди. Бозор атрофидаги кузатув камералари қайтадан текширилди. Тергов тахминларидан энг ишонарлиси сифатида қарздорлардан бири унинг жонига қасд қилган, деган фикр эди. Шу боис суриштирув жараёнида қарздорлар алоҳида ўрганила бошланди. Ниҳоят Сафар исмли, 36 ёшли шахс ўзини шубҳали тутаётганига эътибор қаратилди. Унинг ҳеч жойда ишламаслиги, тилла тақинчоқлар савдоси билан шуғулланиши маълум бўлди. Суриштирув жараёнида саволларга пойма-пой жавоб берар, биринчи жавоби иккинчисига мос келмасди. Ўша куни Янгийўлга иш билан кетгандим, деган гапи ҳам иш бермади. Янгийўлда олиб борилган текширувлар Сафар оғайниларининг олдига борганини кўрсатди. Аксинча, эски бозорга яқин вокзалдаги камера ўша куни эрталаб тасвирга тушган шахслар орасида Сафарга жуда ўхшаш инсонни муҳрлаганди. Фақат кун ҳали ёришмагани учун тасвир сифати пастроқ эди.

Орадан бир неча кун ўтгач, видеотасвирни замонавий асбоблар, компьютер технологиялари орқали ўрганиш натижаси етиб келди. Ундаги шахс қизил рангли «Nike» кроссовкасини кийгани ҳақидаги маълумот жуда муҳим бўлиб чиқди. Айнан Сафар худди шундай кроссовка кийиб юрарди. У барчасини бўйнига олди.

Маълум бўлишича, Замира ва Сафар ўртасида беш минг доллардан ортиқ пул олди-бердиси бўлган. Бир ойча олдин Сафар Замирадан қиймати уч минг долларлик тилла билакузукни қарзга олади. Лекин пулини бера олмайди. Натижада можаро келиб чиқади. Сафар олдинги қарзларини ҳам ҳисобланганда, беш минг доллардан ортиқ қарз бўлиб қолади. Замира пулни беришни талаб қилавергач, ундан қутулиш йўлини излайди. Пухта режа тузиб, пулни бериш баҳонасида уни эрта саҳар бозорга чақиради. Улар учрашганида атрофда ҳали одам йўқ ҳисоби эди...

Ҳар қандай ёлғоннинг умри қисқа. Ҳар қандай қора қилмишнинг қийиғи қирқ йилдан кейин ҳам чиқади. Ушбу қинғирлик икки оила, ўнлаб одамларнинг ҳаётини заҳарлади.

Ҳар қандай жиноятга жазо муқаррар. Ушбу жиноятни содир этган шахс ҳам жазога тортилди. Афсуски, хазон бўлган умрни қайта тиклашнинг иложи йўқ. Қотил-ку жазосини олар. Аммо бир лаҳзада онасидан жудо бўлган, отаси қамалган фарзандлар тақдири нима бўлади?

Улуғбек ОБИДОВ,
Гулистон шаҳар ИИБ бошлиғининг биринчи ўринбосари, подполковник.
Сирдарё вилояти.

Аёл ва жамият

ТАНЛОВДА АДАШМАЙЛИК

Бугун хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва манфаатлари таъминланиши, улар орасида жиноятчиликнинг олди олиниши, оилавий муаммоларнинг ҳал этилишида жойларда фаолият кўрсатаётган хотин-қизлар масалалари бўйича инспекторларнинг ўрни муҳим аҳамият касб этмоқда.

Мисол тариқасида айтадиган бўлсак, Нукус шаҳридаги маҳаллалардан бирида яшовчи У.Ж. турмуш ўртоғи томонидан мунтазам равишда руҳий босимга учраб келган. Ушбу ҳолат назоратга олиниб, унга профилактика инспектори томонидан ҳимоя ордери берилди. У.Ж. билан ўтказилган суҳбат давомида унинг руҳий тушкун ҳолатга тушиб қолгани маълум бўлди. Аёлнинг ҳаётга бўлган қарашини ижобий томонга ўзгартириш ҳамда психологик ёрдам кўрсатиш мақсадида у Қорақалпоғистон Республикаси хотин-қизларни реабилитация қилиш ва мослаштириш марказига жойлаштирилди. Орадан бироз вақт ўтгач, унинг ҳолидан хабар олинганда, аёлнинг руҳиятида ижобий ўзгаришлар пайдо бўлгани маълум бўлди.

Шаҳар ҳудудида олиб борилган ўрганишлар натижасида «Нурли бўстон» макон фуқаролар йиғинида яшовчи Н.У.га ҳам эри томонидан тазйиқ ўтказилгани аниқланди. Унга ҳам ҳимоя ордери берилиб, турмуш ўртоғига ордер тартибини бузишнинг оқибатлари тушунтирилди. Шу билан бирга, макон фаоллари билан оиладаги муаммонинг сабаблари ўрганилди. Ўрганиш давомида аёлнинг эри ичкиликка берилгани ва устачилик орқасида топган пулларининг аксариятини спиртли ичимлик сотиб олишга ишлатгани аниқланди. Оиладаги етишмовчилик эса турли ихтилофларни юзага келтирган.

Шундан сўнг макон фуқаролар йиғини фаоллари, яқин қариндошлар иштирокида суҳбат ўтказилиб, оила яраштирилди. Имкон қадар муаммоси ҳал этилди. Турмуш ўртоғи билан профилактик ишлар олиб борилди.

Гувоҳи бўлганингиздек, келтирилган икки ҳолатда ҳам келгусида содир бўлиши мумкин бўлган кўнгилсиз ҳолатларнинг олди олинди.

Таъкидлаш жоизки, жорий йилнинг ўтган даврида Нукус шаҳри бўйича 284 нафар тазйиқ ва зўравонликка учраган хотин-қизларга ҳимоя ордери берилган. Уларнинг ҳимояга олиниши, ҳақ-ҳуқуқлари таъминланиши натижасида 126 та оила яраштирилиб, 157 та хонадондаги оилавий келишмовчиликларга барҳам берилди. Тартиб-қоидага амал қилмаган 63 нафар шахсга нисбатан жавобгарлик белгиланди.

Хотин-қизлар ўртасида ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликнинг олдини олиш, ҳуқуқбузарликларнинг умумий, шахсий, махсус ва виктимологик профилактикасини амалга ошириш давомида 421 хонадон ўрганилди. Ўрганиш жараёнида 384 та муаммо аниқланиб, улардан 373 таси ижобий ҳал этилди. Пробация ҳисобида турган, фарзанд тарбиясига салбий таъсир кўрсатаётган хотин-қизлар билан профилактик суҳбатлар ўтказилди. Идентификация ID-картага эга бўлмаган 8 нафар хотин-қиз ва кам таъминланганлар ҳисобидаги 1 нафар аёлнинг фарзандига ушбу ҳужжатни олишида амалий ёрдам кўрсатилди.

Афсуски, имкониятлардан тўғри фойдаланиш ўрнига жиноятга қўл ураётганлар ҳам учраб турибди. Нукус шаҳрида яшовчи Х.Х. илгари судланганидан тегишли хулоса чиқармай, яна жиноятга қўл уради. Бу аёл ўзини фуқароларга банк ходими сифатида таништириб, уларнинг номига имтиёзли кредит чиқариб, уни нақдлаштириб беришни ваъда қилади. Шу йўсинда бир нечта фуқарога ажратилган 176 млн сўм кредит маблағларини ўз манфаати йўлида ишлатиб юборади.

Бу каби жиноятларнинг юзага келиши, сабаб ва омиллари, уларнинг олдини олишда нималарга эътибор қаратиш лозимлиги юзасидан маҳаллада учрашувлар ташкил этилмоқда, кенг жамоатчилик иштирокида жиноят муҳокамалари ўтказиляпти.

Хулоса қиладиган бўлсак, ҳаётда инсон учун бир нечта танловлар бўлиши мумкин. Қайси йўлни танлаш эса унинг хоҳиш-иродасига боғлиқ бўлади. Асосийси, тўғри йўлни танлашда адашмайлик.

Айжамал НАМЕНОВА,
подполковник.

Жиззах вилояти





Янги иншоот

Жиззах вилояти Дўстлик тумани ИИБ ҳудудида вақтинча сақлаш ҳибсхонаси фаолияти йўлга қўйилди. «XXI аср бунёдкори» қурилиш корхонаси томонидан барпо этилган мазкур бинода 25 нафар шахсга мўлжалланган 6 та камера мавжуд. Шунингдек, тергов, адвокат, тиббиёт, овқатланиш хоналари ҳамда сайр майдончаси тегишли тартибда жиҳозланган. ВСҚ ходимларининг хизмат хоналари ҳам замон талабларига мос.

Бундан ташқари сақланаётган шахслар яқинлари билан учрашиши учун шароит яратилган. Ювиниш ва кийимларни ювиш масалалари ҳам эътибордан четда қолмаган. Қисқаси, бино халқаро талаб ва меъёрлар асосида бунёд этилган. Ҳибсхона ҳудуди кузатув қурилмалари билан тўлиқ қамраб олинган.

Ўз мухбиримиз.



Salomatlik saboqlari

QUYOSHDA TERINING TA’SIRLANISHI QANDAY KASALLIK?

Bu holat fotodermatoz deb ataladi. U terining quyosh nuriga haddan ziyod javob reaksiyasi hisoblanadi. Teridagi toshmalar quyosh nuri ta’sir eta boshlagandan daqiqalar, soatlar va sutkalar o‘tishi bilan vujudga kelishi mumkin. Kechishi esa haftalab, oylab vaqtni olishi bilan xavfli. Fotodermatozlar boshqa teri kasalliklariga xos bo‘lmagan belgilarga ega. Uning asosiy simptomlari qizarish, teri qichishishi, teri po‘stining ko‘chishi, qorin bo‘shlig‘ida pufakchalar paydo bo‘lishi bilan kechadi. Natijada terida qizish reaksiyasi kuchayib, ba’zi hujayralar o‘lib ketadi, bu esa kuchli yallig‘lanishni keltirib chiqarishi mumkin. Bu boradagi bilimlaringizni yanada boyitmoqchi bo‘lsangiz IIV Markaziy poliklinikasi vrach-dermatologi Ravshan Muhamedovning tavsiyalariga quloq tuting.





Toshmalar asosan tananing qayerida kuzatiladi?

Toshmalar asosan tananing ochiq sohalarida paydo bo‘ladi. Masalan, ular, birinchi navbatda, peshonada, keyin yanoqlar, burun, quloq supralari, bo‘yinning orqa-yon sohalari, ko‘krakning old-yuqori qismi, qo‘l-oyoqlarning yozuvchi joylarida ham kuzatilishi mumkin. Qovoqlar, burun, lab burmalari, barmoqlar orasi, quloq supralari orti terisi, iyak-dahan osti terilariga quyosh tegmasligi sababli bu joylar ko‘p zararlanmasligi mumkin. Ammo toshmalar kuzatilmaydigan sohalar ham tashxislashda katta ahamiyatga egadir.

Mahalliy immunitetning balandligi, qoraygan sohaning himoya qilish xususiyatiga ko‘ra, ochiq terilar har doim ham jarohatlanmasligi mumkin. Aksincha, kiyimlar terini yetarlicha himoya qila olmasligi sabab yopiq joylar ham quyosh tig‘idan zararlanishini kuzatamiz. Bu holat asosan quyosh nuri tik tushadigan vaqt ertalabki soat 10 dan kechki 16 gacha davom etadi.

Quyosh nuri ham allergen sifatida yuzaga chiqadimi?

Fotodermatoz quyosh nuri va ultrabinafsha nurlarining allergiyasidir. Ammo quyosh nurida allergenlar mavjud emas. Teri sezuvchanligining oshishi va teri ustida joylashgan moddalar fotosintezatorlar bilan rag‘batlantiriladi. Ko‘pincha ushbu xastalik bilan havaskor bog‘bonlar, elektropayvandchilar, EHM operatorlari zarar ko‘radilar. Sababi, ular kun mobaynida lyuminissen lampalar bilan yoritilgan xonalarda ishlaydi yoki quyosh tikka kelganda ham dalada qoladi. Anamnez to‘plashda bemorning umumiy holati obdan o‘rganiladi.



Ehtiyot choralari

– Quyosh nurlarining zararli ta’siridan terini himoyalash uchun tanani munosib narsa bilan yopish, boshni asrash uchun soyabonli boshkiyim kiyish, ko‘zni asrash uchun qora ko‘zoynak taqish kerak.

– Ochiq rangli liboslar kiyish, eng afzali oq rangli, yenglari uzun bo‘lishi maqsadga muvofiq.

– Havo issiq bo‘lgan paytlarda qora kiyim kiymaslik. Chunki qora rang issiqlikni qaytarmaydi, aksincha, yutadi. Natijada tananing qizib ketishiga sabab bo‘ladi.

– Ko‘p miqdorda suv ichish. Bu suv issiq havodagi terlash natijasida yo‘qotilgan suyuqlik o‘rnini to‘ldiradi.

– Tez-tez hammomga tushish orqali tanani sovutish va toza saqlash.

– Uy, hovli atrofiga baland va zich bo‘lib o‘sadigan daraxtlardan ekib, uning soyasi vositasida hovlidagi havoning issig‘ini biroz yumshatish mumkin.

Gulnoza TURG‘UNBOYEVA yozib oldi.



Nima qilish kerak?

Xastalikning oldini olish va muammoni bartaraf etish uchun bir nechta oddiy profilaktik qoidalarga rioya etish talab etiladi. Fotosensibilizatsiya ta’sirga ega bo‘lgan barcha dori-darmonlar va boshqa turdagi vositalarni cheklash zarur. Soat 10:00 dan 16:00 oralig‘idagi quyosh nuridan saqlanish, yumshoq va paxtali himoya kiyimlarini kiyib yurish, to‘g‘ri va muvozanatli ovqatlanish, ko‘proq suv ichish (kamida 2 litr), shifokor tavsiyasiga ko‘ra, dori-darmonlarni qabul qilish, terining yallig‘lanishiga olib keladigan potologiyalarni o‘z vaqtida davolash, muntazam ravishda tibbiy ko‘rikdan o‘tib turish lozim. Murakkab davolash va profilaktika qoidalariga astoydil amal qilish orqali to‘liq tiklanib ketishga erishish mumkin.

Shuningdek, davolashda mahalliy davo va teridagi o‘zgarishlarga mos kortikosteroidli surtmalar tavsiya etiladi. Og‘ir hollarda nur bilan davolash kurslari o‘tkaziladi yoki kortikosteroidlar va immunodepressantlar buyuriladi.



Qashqadaryo viloyati IIB rahbariyati, shaxsiy tarkibi hamda Faxriylar kengashi Koson tumani IIB boshlig‘i, polkovnik Ilhom Qutlimurotovga padari buzrukvori

MADIYOR otaning

vafot etganligi munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

Страницы истории

ЧЕРЕЗ ТЕРНИИ К ЗВЕЗДАМ



Научные труды великого ученого XV века Мирзо Улугбека (1394-1449) оказали значительное влияние на развитие точных наук Запада и Востока, Индии и Китая.

В 1428-1429 годах под Самаркандом Улугбеком была возведена одна из наиболее значительных обсерваторий средневековья. По схеме она представляла круглое трехэтажное, напоминающее пещеру вглубь, здание диаметром 46,4 м и высотой не менее 30 м.

Среди многочисленных исследований Улугбека, проводившихся в данной обсерватории, большой интерес представляет каталог звездного неба «Гурганский зидж», состоящий из описания 1018 звезд.

Первый в истории астрономии каталог звезд составил астроном древности Гиппарх, живший во II веке до н. э. Каталог содержит координаты около тысячи звезд; он помещен в работе известного древнегреческого ученого Птолемея «Альмагест» («Большое математическое построение астрономии в 13 книгах»), датированной примерно 140 г. н. э.

Проведенная в обсерватории Улугбека работа – это полное перенаблюдение звезд из каталога Гиппарха–Птолемея через 16 веков после его создания. В фундаментальном каталоге Улугбека дан перечень звезд, указанных Гиппархом, но координаты указаны с более высокой точностью.

Звездный каталог Улугбека стал широко известен после его публикации в 1648 году. Работу подготовил к печати и прокомментировал Джон Гривс (1602–1652), профессор астрономии Оксфордского университета.

* * *

Основной инструмент Самаркандской обсерватории – мраморный квадрант, радиус дуги которого составляет 40,2 м, а длина дуги – 63 м.

Большая часть этого огромного угломерного инструмента размещена под землей, под полом обсерватории – до глубины более 10 метров. Вторая половина квадранта на 28 м поднималась над землей и, скорее всего, опиралась на прямоугольную башню, которая не сохранилась до наших дней.

Возведенный в направлении с юга на север, то есть в плоскости меридиана, этот квадрант использовался для определения высот Солнца, Луны и планет над горизонтом в момент их прохождения через небесный меридиан, а также для измерения углового расстояния между светилами и для наблюдений ярких звезд.





ГОРОСКОП НА НЕДЕЛЮ
(с 21 по 27 августа)

Овен. В предстоящие дни беритесь за дела, которые имеют большие шансы на успех. Отличная неделя для поездок, как личных, так и деловых. Командировки, путешествия, экскурсии – все пройдет просто замечательно. Несмотря на то, что у вас много работы, постарайтесь большую ее часть перенести на следующую неделю.

Телец. Начало недели стоит провести в покое и созерцании. Плывите по течению, пусть события развиваются своим чередом, а окружающие действуют так, как считают нужным. Позиция наблюдателя позволит не только перевести дух, но и взглянуть на многие вещи совершенно по-другому.

Близнецы. Неделя ознаменуется неожиданным поворотом событий, решение придется принимать почти мгновенно. Будьте готовы ко всему, не витайте в облаках и держите руку на пульсе – значимые изменения могут затронуть любую сферу вашей жизни.

Рак. Раки будут необычайно активными и целеустремленными. Вашей энергии хватит, чтобы разобраться с ворохом дел. Но будьте снисходительнее и терпимее к тем, кто наделен меньшим запасом прочности – не давите на людей, не подгоняйте и не критикуйте.

Лев. Львы окажутся в нужное время и в нужном месте. Вероятны интересные, многообещающие знакомства. Захотите участвовать во всем, что происходит вокруг вас, но не забывайте о мере и чувстве такта. Не спешите раздавать советы направо и налево, вмешиваться в споры и чужие дела.

Дева. Начало недели будет насыщенным событиями. Важные известия, перемены, новые знакомства. Приготовьтесь к тому, что ваша жизнь может измениться до неузнаваемости. Но не позволяйте себе думать о плохом. Если поддадитесь грустным мыслям, испортите себе настроение надолго.

Весы. Прислушивайтесь к интуиции, обстоятельства будут меняться быстро. Внутренний голос поможет вам правильно сориентироваться в ситуации и принять верное решение. В выходные принимайте гостей. Ожидается новое знакомство с хорошим человеком.

Скорпион. Чтобы не наломать дров и не рассориться с окружающими, посвятите больше времени делам, не требующим общения с людьми. Проявите внимание к членам семьи, они в этом нуждаются. Выходные проведите с близкими на природе.

Стрелец. Неделя ознаменуется какой-то победой. Не сдерживайте радость, не скупитесь на проявление эмоций. Хорошее настроение даст вам силы для новых достижений. Неделя благоприятна для творческих порывов. Перед вами открываются новые перспективы.

Козерог. Начало недели не подходит для бурной деятельности и активного отдыха. Никаких важных дел на эти дни планировать не стоит. Сосредоточтесь на выполнении рутиной работы Если есть такая возможность, проведите время с родными и близкими.

Водолей. Неделю придется начать с активной деятельности. Поначалу это может вызвать раздражение, вы захотите на все махнуть рукой. Но делать этого не стоит, можете упустить перспективные возможности. Грамотно распределяйте время, чтобы все успеть.

Рыбы. Рыб ждут финансовые поступления. Премия, неожиданная прибыль, новый способ заработка. Приятные неожиданности могут произойти и в других сферах жизни, так что будьте готовы к позитивным переменам. Неделя будет довольно загруженной.

Bir qo‘shiq tarixi



ULUG‘IMSAN, VATANIM...



Qo‘shiqning videoklipi.

2001-yil 31-avgust kuni Mustaqillik maydonida bo‘lib o‘tgan Istiqlolning o‘n yillik tantanalarida yosh xonanda Sevara Nazarxon tomonidan O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning «Vatanim» she’ri asosida yaratilgan qo‘shig‘i ilk ijrodayoq Vatan mehri qalbiga tutash har bir yurtdoshimiz yuragiga kirib borgani rost. Mana, qariyib yigirma ikki yildirki, yuksak mahorat va dard bilan kuylangan ushbu taronani yurtdoshlarimiz xonandaga jo‘r bo‘lib ijro qiladi.

O‘sha kezlarda san’at olamiga kirib kelganiga u qadar ko‘p bo‘lmagan Sevara Nazarxon bastakor sifatida she’r matniga, mazmun-mohiyatiga mos va ohangdosh musiqa topganki, go‘yo shoir oldindan shu musiqani xirgoyi qilib, ash’or bitgandek tuyuladi. Shu o‘rinda Muhammad Yusufning ko‘pchilik she’riyat ixlosmandlariga ma’lum bo‘lmagan bir jihati xususida to‘xtalsak. Bu borada uning singlisi Matluba Bo‘tayevaning «Akam san’atga juda mehr qo‘ygan edi. Shu bois, rubob chalib, yozgan she’rlarini kuyga solib, ashula qilib aytardi. Bu akamning ochilmagan qirralaridan biri edi», deya bildirgan fikrini ham keltirish joizdir. Demakki, ijodkorning ham o‘zbek milliy qo‘shiqchilik san’atiga mehri juda yuqori bo‘lgan. U yozgan she’rlar musiqiy ohangi bilan birga tug‘ilgani natijasida muallifini ham, hofizni ham mashhurlik pog‘onasiga ko‘targan.

– Ushbu qo‘shiqni qachon, qayerda kuylamay yo tinglamay, doim ko‘zimga yosh qalqiydi, – deydi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Sevara Nazarxon. – Qo‘shiqdagi so‘zlar qalb tubidagi eng nozik tuyg‘ularni ham junbishga keltirmay qolmaydi. Sevimli shoirimiz Muhammad Yusuf «Ulug‘imsan, Vatanim»dagi har bir so‘zni yuraklardan chiqarib yozganiga shubha yo‘q.

Taniqli jurnalist Ahmadjon Meliboyev Muhammad Yusuf bilan bog‘liq xotiralarida shoirning «Vatan siz uchun nima, Vatanni siz qanday tushunasiz?» degan savolga javobini shunday bayon qiladi: Vatan men uchun – jon. Jonsiz yashab bo‘lmaganidek, Vatansiz ham yashab bo‘lmaydi. Jon shirin deyishadi. Vatan jondan ham shirin. Hayotimni, olayotgan har nafasimni, bosayotgan har qadamimni, aytayotgan har so‘zimni shu shirin jonsiz, shu buyuk boyliksiz tasavvur qila olmayman. Men Vatanni shundoq tushunaman...»

Ha, O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf she’rlarida Vatanni kuylashda haqiqiy o‘zbekka xos jo‘mardlik, bag‘rikenglik, favqulodda hayrat va sehr kuchi bor edi. Shu bois ham shoirning Vatanni sevish, anglash, unga bo‘lgan muhabbat haqidagi dilga yaqin satrlarini o‘qiganimiz, kuyga singgan taronalarni tinglaganimiz sayin qalbimizda yurtga o‘zgacha muhabbat, o‘zgacha taft his etamiz.

VATANIM

Men dunyoni nima qildim,
O‘zing yorug‘ jahonim,
O‘zim xoqon, O‘zim sulton,
Sen taxti Sulaymonim,
Yolg‘izim, Yagonam deymi,
Topingan koshonam deymi,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim...

Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga.
Singlim deymi, Onam deymi,
Hamdard-u hamxonam deymi,
Oftobdan ham o‘zing mehri
Ilig‘imsan, Vatanim.

Sen Mashrabsan,
Xalqda tumor,
Balxda dorga osilgan,
Navoiysan, shoh yonida
Faqirni duo qilgan.
Yassaviysan, meniki deb,
Ko‘ringan da’vo qilgan,
Ming bir yog‘i ochilmagan
Qo‘rig‘imsan, Vatanim.

Sen Xo‘jandsan,
Chingizlarga
Darbozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,
Muqannasan qorachig‘i
Olovlarga sachragan,
Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon
Cho‘lig‘imsan, Vatanim.

Kim Qashqarni qildi makon,
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin — Kurdistonda,
Boburing — Hindistonda,
Bu qanday yuz qarolig‘ deb,
Yotarlar zimistonda,
Tarqab ketgan to‘qson olti
Urug‘imsan, Vatanim...

O‘g‘lim, desang osmonlarga
G‘irot bo‘lib uchgayman,
Chambil yurtda Alpomishga
Navkar bo‘lib tushgayman,
Padarkushdan pana qilib
Ulug‘beging quchgayman,
G‘ichir-g‘ichir tishimdagi
So‘lig‘imsan, Vatanim...

O‘tgan kuning — o‘tgan kundir,
O‘z boshingga yetgan kun,
Qodiriyni bergan zamin,
Qodiriyni sotgan kun.
Qo‘lin bog‘lab,
Dilin dog‘lab,
Yetaklashib ketgan kun,
«Voh bolam!» deb aytolmagan
Dudug‘imsan, Vatanim.

Yoningda qon yig‘lagan bir
Shoiringga qarab qo‘y,
Gar Qo‘qonga yo‘ling tushsa,
Detdomlarni so‘rab qo‘y.
Hech bo‘lmasa Usmon xokin
Keltirmoqqa yarab qo‘y,
Olislarda qurib qolgan
Qudug‘imsan, Vatanim...

Sen — shoxlari osmonlarga
Tegib turgan chinorim,
Ota desam,
O‘g‘lim deb,
Bosh egib turgan chinorim,
Qo‘ynimdagi iftixorim,
Bo‘ynimdagi tumorim,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim!

Gulnoza TURG‘UNBOYEVA tayyorladi.

Postda
На посту

MUASSIS:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o‘rinbosarlari –
mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas’ul kotiblar –
Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –
Sherzod ABDUSAMADOV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –
Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:
71-231-33-88;
Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo‘yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami h/r 23402000300100001010. Bank kodi 00014. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g‘aznachiligi. Shaxsiy h/v 47001086026287703110117900l STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.
Nashrimizdan ko‘chirib bosilganda manba ko‘rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili:
Alisher Navoiy ko‘chasi 30-uy.

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Buyurtma №V-5564.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 50362 nusxada chop etildi.
Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:
100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko‘chasi 9-uy.